**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2022.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ATABOYEV NOZIMJON BOBOJON O‘G‘LI

**MEDIAMATNLAR DIAXRONIK KORPUSIDA TIL RIVOJINING EMPIRIK
TAHLIL TAMOYILLARI
(gazeta materiallari misolida)**

**10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va
kompyuter lingvistikasi**

**FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philology (DSc)

Содержание автореферата диссертации доктора филол. наук (DSc)

**FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2022.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ATABOYEV NOZIMJON BOBOJON O'G'LI

**MEDIAMATNLAR DIAXRONIK KORPUSIDA TIL RIVOJINING EMPIRIK
TAHLIL TAMOYILLARI
(gazeta materiallari misolida)**

**10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va
kompyuter lingvistikasi**

**FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg'ona – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.DSc/Fil465 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz va rus (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb-sahifasida (https://fdu.uz/) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Teshabayeva Dilfuza Mo'minovna**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Sultonova Shoxista Muxammadjanovna**
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Dr. Mario Bisiada
filologiya fanlari doktori (Ispaniya)

Yetakchi tashkilot: **Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning "26" august 2024-yil soat 8:00dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Tel.: (99873) 244-57-82; faks: (99873) 244-44-01; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (366 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-71-28.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "13" august kuni tarqatildi.
(2024-yil "13" august da 22 raqamli reyestr bayonnomasi).

S.M. Muminov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

M.T. Zokirov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, filol.f.m, professor

A. Mamajonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

<center>**KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**</center>

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida globallashuv tendensiyalarining jadallashayotgani bois madaniyatlararo hamda tillararo yaqinlashuv jarayoni yuzaga kelib, o'zaro yaqin aloqadagi tillar o'rtasidagi interferensiya kuchayishining sof leksik qatlam yaruslariga ta'sirini o'rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammosi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, tilni jamiyatning uzviy qismi sifatida til sohibidan ajralmagan holda, ya'ni antropotsentrik paradigma nuqtayi nazaridan tadqiq etilayotgani tilshunoslar oldiga tilning tarixiy evolyutsiyasiga uyg'unlashgan bugungi holatini o'rganib, uning kelajagiga oid tadrijiy tahlillarga asoslangan ilmiy farazlarni ishlab chiqish talabini qo'ymoqda. Bu borada xronologik tartiblangan, aniq statistik me'yorlarga tayanib, asliyatdan olingan autentik materialar/matnlar asosida shakllantiriladigan diaxronik korpuslar tatbiqi o'ziga xos yondashuvni taqozo etadi.

Dunyo lisoniy tadqiqotlar doirasida keng tarqalib, zamonaviy ilm-fan talablariga mos ravishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanib, taraqqiy etayotgan korpus lingvistikasi o'zining metodologiyasi asosida tilshunoslikning barcha muammolariga yechim izlashning yangicha qulay usullarini taklif etmoqda. Metodlar tizimining kompyuter lingvistikasi, matn lingvistikasi, matematik lingvistika va amaliy lingvistika kabi fan tarmoqlarining uyg'unligidan hosil bo'lganligi bu borada olib borilayotgan izlanishlarning mohiyatan dolzarbligini belgilaydi.

Mamlakatimizda davlat tili maqomini yanada mustahkamlash borasida keng qamrovli islohotlarning siyosiy irodaga tayanganligi tilshunoslar oldiga ona tilimizda bitilgan qadimiy qo'lyozmalardan tortib, bugungi kun lisoniy voqelik qamrovidagi matniy birliklargacha bo'lgan manbalarning elektron bazasini, ya'ni korpusini yaratib, yangicha yondashuv asosida tadqiq etish vazifasini yuklamoqda. "Ma'lumki, har qanday tilni o'rganish va rivojlantirishda, birinchi navbatda, uning nazariy-metodik asoslari katta o'rin tutadi. Shular qatorida o'zbek tilining elektron milliy korpusi va dasturiy mahsulotlarning o'zbekcha ilovalarini yaratish, o'zbek tilini Internet tarmog'ida ommalashtirish va munosib o'rin egallashini ta'minlash, davlat tilini o'rgatishga hamda matn tahririga mo'ljallangan dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish bo'yicha ham jiddiy ishlar olib borilayotganini qayd etish zarur"[1]. Shunday ekan, tadqiqot obyekti sifatida tanlangan gazeta materiallari misolida o'zbek tilining diaxronik korpusini ilk bor ishlab chiqish asnosida ona tilimizning leksik qatlami rivojini empirik tahlil etish orqali uning til yarusidagi o'zgarishlarni qayd etib borish kabi muhim vazifalar ilmiy ishning zaruriyatini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston

---

[1] Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbek tili bayrami munosabati bilan O'zbekiston xalqiga tabrigi. https://president.uz/oz/lists/view/6784 [murojaat sanasi 29.02.2024]

Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2024-yil 12-yanvardagi PQ-19-son "Xorijiy davlatlarda O'zbekiston tarixi va madaniyati, o'zbek tili va adabiyotini o'rganishni keng targ'ib qilish orqali turistlar oqimini ko'paytirish hamda mamlakatimiz nufuzini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-martdagi 139-son "O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 3-martdagi 117-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi[2].

Lisoniy korpuslar yaratish amaliyoti hamda korpus lingvistikasi fan tarmog'ining bugungi yutuqlaridan foydalangan holda til tadqiqi masalasini o'rganish bo'yicha dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan, Lancaster University, Lancaster (Birlashgan Qirollik), The University of Birmingham (Birlashgan Qirollik), Macquarie University, Sidney (Avstraliya), University of Portsmouth (Birlashgan Qirollik), Lancaster summer schools (Birlashgan Qirollik), University of Sydney, Sidney (Avstraliya), Buxoro davlat universiteti (O'zbekiston), Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti (O'zbekiston) da olib borilmoqda.

Jahon tilshunosligida korpus lingvistikasi hamda lisoniy korpuslarni til tarixi, uning rivojlanish tendensiyalari hamda madaniyatlararo interferensiya muammolari tahlilida qo'llashga oid tadqiqotlar natijasida, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: ingliz tilining tuzilishi va g'arb tillari tahlili uchun korpus lingvistik usullarning qo'llanilishi (Lancaster University, Lancaster (Birlashgan Qirollik), korpus lingvistikasi metodologiyasiga asoslangan ilk leksikografik tadqiqotlar hamda stilistika, nutq tahlili, psixolingvistika, kognitiv lingvistika va statistika kabi sohalar bilan korpus tahlil metodlari uyg'unligini aniqlash (The University of Birmingham (Birlashgan Qirollik), turli tadqiqot yo'nalishlari, jumladan, bola tilining rivoji, ikkinchi tilni o'rganish jarayoni, tarjima, sotsiolingvistika, ingliz tilining dunyo bo'ylab tarqalgan variantlari va matematik lingvistika kabilarni qamragan korpus lingvistik tadqiqotlarini amalga oshirish (Macquarie University, Sidney (Avstraliya)), milliardlab so'zlardan tarkib topgan korpuslar yordamida ayni bir tilning turli mintaqalarda, janrlarda va vaziyatlarda turlicha qo'llanilish sabablarini asoslash

---

[2] Sharh universitetlarning veb-saytlaridagi ma'lumotlar asosida taqdim etildi: https://www.lancaster.ac.uk/, https://www.birmingham.ac.uk/, https://www.mq.edu.au/, https://www.port.ac.uk/, https://wp.lancs.ac.uk/, https://www.sydney.edu.au/, https://buxdu.uz/

(University of Portsmouth (Birlashgan Qirollik), ingliz tili grammatikasi va lug'at qatlamini korpus lingvistikasi orqali o'qitish (Lancaster summer schools (Birlashgan Qirollik) ingliz tilini o'rganish va o'qitish jarayonida korpus tahlillaridan foydalanish (University of Sydney, Sidney (Avstraliya), inglizcha va o'zbekcha mediamatnlar diaxronik korpusini yaratish orqali tanlangan tillar rivojini kuzatish (Buxoro davlat universiteti (O'zbekiston), o'zbek tilining milliy, ta'limiy hamda elektron korpuslarini yaratish Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti (O'zbekiston) kabi muammolar o'z yechimini topgan.

Dunyo tilshunosligida korpus tahlilariga asoslangan til rivoji taqdiqi va diaxronik korpuslar yaratish amaliyotini yaxlit tizimli o'rganish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: biologik til rivoji tadqiqida, xususan, yosh va jins kategoriyalari asnosida korpus tahlil tamoyillari, madaniy va mintaqaviy til rivojida hududiy, dialektik, sheva va lahjalarni o'z ichiga olgan til korpuslarini yaratish va boshqalar.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida G.Lich birinchilardan bo'lib, korpus lingvistikasining paydo bo'lishi, taraqqiyoti haqida ilmiy izlanish olib bordi[3]. Zamonaviy korpus lingvistikasi shakllanishiga doir tadqiqotlar S.Hyuston, D.Biber, S.Grays, M.Halliday va V.Teubert kabi ingliz olimlari tomonidan amalga oshirilgan[4]. Rus olimlari V. Baranov va V.Zaxarov ishlarida korpus lingvistikasi spetsifikasiga, N.Vladimov, S.Vadyaev, O.Gorkina, V.Mamontova va A.Magametova kabi olimlar "korpus lingvistikasi", "lisoniy korpus" tushunchasi va uni tasniflash muammolariga atroflicha yondashganlar[5]. Tojikistonlik olima D. Djafarova tadqiqotida korpus lingvistikasining kompyuter lingvistikasi va boshqa o'zaro o'xshash sohalar bilan qiyosiy tahlili amalga oshirilgan[6].

---

[3] Leech G. Corpora And Theories Of Linguistic Performance. In J.Svartvik (ed.). 1992. – 105–122 pp.

[4] Hunston S. Corpora in Applied Linguistics: Cambridge University Press, 2002. – 234 p.; Halliday M.A., TeubertW., Yallop C. and Cermakova A. Lexicology and Corpus Linguistics, – London, 2004. – 184 p.; Gries S.Th. Introduction to S. Gries and A. Stefanowitsch (eds.). Corpora in Cognitive Linguistics: Corpus-based Approaches to Syntax and Lexis. – Berlin: Heidelberg, New York: Mouton de Gruyter, 2006. – 1-18 p.; Douglas B., UllaC. and Thomas A.U. Discourse On The Move. – Amsterdam, 2007. – 290 p.

[5] Баранов А.Н. Компьютерная лингвистика // Введение в прикладную лингвистику: учебное пособие. – М.: Едиториал УРСС, 2003. – 320 с.; Захаров В.П. Корпусная лингвистика: Учебно-метод. пособие/ В.П. Захаров. – СПб, 2005. – 48 с. – Режим доступа:http://download.yandex.ru/class/zakharov/plan.pdf; Владимов Н.В. Корпусный подкод к решению переводческий проблем (на материале англиского и русского языках): Дисс....канд. филол. наук. – М.: РГБ, 2005. – С 26.; Вадяев С.Е.Лингвистические принципы построения и использование корпуса текстов для Исследования официально-делового стиля современного немецкого языка(на материале электронного корпуса «DER»): Дис ... канд. филол. наук. – Самара, 2005. – 160 с.; Горина О.Г. Использование технологий корпусной лингвистики для развития лексических навыков студентов-регионоведов в профессионально-ориентированном общении на английском языке: Дисс. … канд. пед. наук. – М., 2014. – 321 с.; Мамонтова В.В. Особенности перевода сложносоставных слов с английского языка на русский (на материале корпуса публицистических текстов): Дисс. ... канд. филол.наук. – Ставрополь: 2008. – 139 с.; Магомедова А.Н.Корпусная лингвистика и контекстное разрешение лексической многозначности слов: Дисс. ... канд. филол. наук. – М.: РГБ, 2005. – 132 с.

[6] Джаъфарова Д.Ф. Модели лингвистического анализа текстов таджикского языка (на материале газелей Хафиза): Дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2013. – 151 с.

Korpus tahlillaridan lug‘atshunoslikda foydalanish borasidagi ishlar A. Kilgarrif, K. Iztok, F. Karlson va I. Sojenin tadqiqotlarida kuzatilgan bo‘lsa[7], V. Rikov, A. Romanov va V. Plungyan kabi olimlar "korpus" tushunchasini matn tahlillarida qo‘llash metodini ishlab chiqishgan[8].

O‘zbekistonda ham bugungi kunda korpus lingvistikasi metodlarini qo‘llash, mavjud korpuslardan foydalanish borasida keng ko‘lamli ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. J. Jumaboeva ingliz tili korpuslaridan, xususan, BNC[9] tarkibidan semantik gradatsiyalarni topish, G. Ergasheva BNC korpusi asosida genderga oid konseptual metaforalarni tadqiq qilish, G. Sobirova esa BNC korpusini tillarni o‘qitishda qo‘llashga e’tibor qaratgan. Sh. Hamroeva mualliflik korpusini yaratish muammosiga yechim izlagan[10]. Shuningdek, o‘zbek tilining elektron, milliy, ta’limiy va parallel korpuslarini yaratish amaliyoti hamda ularning nazariy asoslarini ishlab chiqish borasida N.Z. Abduraxmonova, Sh.M. Hamroyeva, G.I. Toyirova, G.X. Begmatova, A.A. Raxmanova, O‘.M. Xoliyorov, D.Q. Elova va R.A. Karimov[11] kabi olimlarning salmoqli ilmiy-tadqiqotlarini misol qilib keltirish o‘rinlidir. Qolaversa, hozirda o‘zbek tilining lisoniy korpuslarini yaratish bo‘yicha amalga oshirilayotgan katta hajmli loyihalar o‘z natijasini bermoqda. Ularga misol qilib O‘zbek tilining elektron korpusi (https://uzbekcorpus.uz), O‘zbek tili milliy

[7] Kilgarriff A., Kosem I. Corpus Tools For Lexicographers. – Trojina: Institute for Applied Slovene Studies, 2012. – 37 p. УРЛ: https://www.researchgate.net/publication/264884809_Corpus_tools_for_lexicographers; Karlsson F. Lexicography And Corpus Linguistics. – Helsinki: Department of General Linguistics University of Helsinki, 1992. УРЛ: http://www.ling.helsinki.fi/~fkarlsso/INTJLLEX.pdf; Kilgarriff A. Using Corpora [And The Web] As Data Sources For Dictionaries. – Helsinki: 2012. – 21 p. https://www.sketchengine.eu/wp-content/uploads/Using_corpora_2012.pdf; Саженин И.И.Корпусные методы в лексикографии: опыт создания модели Словарного корпуса: Дисс. ... канд. филол. наук. – Новосибирск, 2013. 193 с.

[8] Рыков В.В. Корпус текстов новый тип словесного единства Текст. / В.В. Рыков. – Электрон, изд. – Режим доступа к изд.: http://rykov-cl.narod.ru/t31 .html.; Романов А.С. Методика и программный комплекс для идентификации автора неизвестного текста: Автореф. дисс....канд. тех. наук. - Томск, 2010. 26 с.; Плунгян В.А. Корпус как инструмент и как идеология: о некоторых урокахсовременной корпусной лингвистики// Русский язык в научном освещении. – М.: №2., 2008. – С. 7-20.

[9] BNC (BritishNationalCorpus) – Британия Миллий Корпуси: 100 миллион сўзли лисоний корпус.

[10] Сабирова Г. Умумтаълим мактаблари ўқувчиларига инглиз тили олмошларини ахборот технологиялари асосида ўргатиш методикаси: Филол. фалс. д-ри (PhD) ...дисс. автореф. – Тошкент: 2017. – 41 б. URL: http://uzswlu.uz/media/ba7be50d-84f1-c826-f935-6e7610cb6bf5.pdf; Эргашева Г. Турли тизимдаги тилларда гендерга оид терминологиянинг шаклланишида лингвистик ва экстралингвистик омиллар: Филол. фан. д-ри. .... дисс. автореф. – Тошкент: 2018. – 61 б. URL: http://demo.navoiy-uni.uz/sites/default/files/ziyonet.pdf; Джумабаева Ж. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик ҳамда стилистик градуонимия: Филол. фан. д-ри. .... дисс. автореф. – Тошкент: 2016. – 82 б. URL: http://tashgiv.uz/wp-content/uploads/2017/01/ avtoref_jumabayeva.pdf; Хамроева Ш. Ўзбек тили мауллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Филол.бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Қарши, 2018. – 52 б. URL: https://e-books.tsue.uz/pdf-ozbek-tili-mualliflik-korpusini-tuzishning-lingvistik-asoslari

[11] Abdurahmonova N.Z. O`zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari: Filol. fan. d-ri. (DSc) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2021. – 73 b.; Хамроева Ш.М. Ўзбек тили морфологик анализаторининг лингвистик таъминоти: Филол. фан. д-ри (DSc) дисс. автореферати – Фарғона, 2021. – 76 б.; Тоирова Г.И. Ўзбек тили миллий корпусини яратишнинг назарий ва амалий масалалари: Филол. фан. д-ри (DSc) дисс. автореферати – Бухоро, 2021. – 72 б.; Бегматова Г.Х. Ўзбек тили миллий корпусида идиомалар базасини яратиш: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) дисс. – Термиз, 2021. – 143 б.; Рахманова А.А. Ўзбек тили миллий корпусини яратишдаги компьютер усуллари: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2021. – 161 б.; Холиёров Ў.М. Ўзбек тили таълимий корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) дисс. – Термиз, 2021. – 181 б.; Каримов Р.А. Ўзбек-инглиз параллел корпусини тузишнинг лингвистик ва дастурий масалалари: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) дисс. – Бухоро, 2022. – 148 б.; Элова Д.Қ. Ўзбек тили корпуси бирликларининг услубий тегларини яратиш тамойиллари ва лингвистик таъминоти: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – 65 б.

korpusi (http://uzbekcorpora.uz), O'zbek tilining ta'limiy korpusi (https://uzschoolcorpara.uz) kabilarni salmoqli dasturiy mahsulotlar sifatida qayd etish mumkin.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlarining "Tilning leksik-semantik tizimi, qiyosiy-tipologik izlanishlar va adabiyotshunoslik muammolari" ilmiy mavzusining tarkibiy qismi bo'lib, Xorijiy tillar fakultetining ilmiy rejalariga kiritilgan.

Tadqiqotning maqsadi turli tizimli tillar mediamatnlari diaxronik korpusini yaratish orqali til rivoji tadiqiqining empirik tahlil tamoyillarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

diaxronik korpus yaratish va uni qo'llashga oid korpus lingvistikasi ilmiy-tadqiqot metodologiyasini takomillashtirish asnosida manba bilan ishlash bo'yicha diaxronik korpuslar bazasiga xos matnlar bilan ishlash talablarini ishlab chiqish;

mediamatnlarni tilning ijtimoiy ifodasi hamda til boyishining asosiy resursi sifatida o'ziga xos xususiyatlarini yoritish;

mediamatnlar diaxronik korpusini yaratishning nazariy va amaliy ahamiyatini anglagan holda tanlangan tillar doirasida inglizcha va o'zbekcha gazeta matnlaridan tarkib topgan diaxronik korpusni yaratish;

mavjud ingliz tili korpuslari, jumladan, xronologik tartiblangan hamda me'yorlashtirilgan lisoniy korpuslarning amaliy ahamiyatini ochib berish;

o'zbekcha va inglizcha gazeta materiallari misolida mediamatnlar diaxronik korpusining amaliy ahamiyati, jumladan, leksik qatlamning yillar kesimida o'zgarishiga statistik asos sifatida qo'llanishi mumkin bo'lgan baza ekanligini isbotlash;

mediamatnlar diaxronik koprusining tadqiq etilayotgan tillararo lingvomadaniy tushunchalar muqoyasasi uchun yetarli manba ekanligini tadqiq qilish;

mediamatnlar diaxronik koprusining tilning leksik qatlami rivojini kuzatishga doir yondashuvlarni nazariy asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida "Oila va jamiyat" va "Anaheim Bulletin" gazetalarining 1991–2020-yillar oralig'ida chop etilgan nashrlari asosida ishlab chiqilgan mediamatnlar diaxronik korpusi tanlangan.

Tadqiqotning predmetini "Oila va jamiyat" va "Anaheim Bulletin" gazetalarining 1991–2020-yillar oralig'ida chop etilgan nashrlari asosida yaratilgan turli tizimli tillar mediamatnlari diaxronik koprusidan olingan statistik tahlillar va qidiruv natijalarida leksik, semantik, kollokatsion va lingvomadaniy birliklarning tadrijiy tahlili tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida kontent tahlil, tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, statistik, lingvokognitiv, korpus va empirik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz, rus, xitoy, arab, ispan va koreys tillarining mavjud diaxronik korpuslar manbasiga qo'yiladigan xronologik uzviylik, transliteratsiya, davriy aniq miqdor, vaqt oralig'ining qat'iyligi kabi me'yorlari orqali lisoniy korpuslar bazasi bilan

ishlash tamoyillarining autentiklik hamda reprezentativlik kabi funksional jihatlari ochib berilgan;

o‘zbek tili lisoniy korpuslarining sinxronik korpus tamoyillariga mosligi hamda dunyoning lisoniy manzarasidagi lingvomadaniy evrilishda tillarning leksik qatlam yaruslaridagi tadrijiy rivojini dalillash orqali o‘rganilayotgan tillar diaxronik korpusini yaratishning xronologik tartib, davriy qamrov, lingvistik va ekstralingvistik omillari ilmiy asoslangan;

“Oila va jamiyat” va “Anaheim Bulletin” gazeta materiallarining xronologik ketma-ketlikdagi o‘ttiz yillik bazasini qamrab, o‘rganilayotgan tillar tarkibida umumiy hamda yillik statistik tahlil tamoyillarini avtomatik bajaruvchi o‘zbek va ingliz mediamatnlari diaxronik korpusi (https://mediatextcorpus.com/) veb-dasturi yaratish orqali turli tizimli tillarda kollokatsiyalarning xronologik birikuvchanligiga oid istorizmlar tadrijiy aniqlangan;

tillararo lingvomadaniy tushunchalarning konseptual freymini ishlab chiqish orqali tadqiq etilayotgan tillar bazasida tahlilga tortilayotgan lingvokuluremaga oid milliy, siyosiy va ijtimoiy yondashuvning o‘zgarib borish tendensiyalarini tadrijiy kuzatish imkoniyatining mavjudligi isbotlangan;

diaxronik korpuslar vositasida o’rganilayotgan tillar lug‘at qatlami rivojining asosiy hodisalari: neologizmlar va arxaizmlarni qayd etib borish funksiyasi imkoniyatlarining mavjudligi empirik dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

korpus lingvistikasi metodlar tizimi zamirida diaxronik korpuslar yaratishga yo‘naltirilgan ba zaviy, ya’ni manba bilan ishlash me’yorlari takomillashtirilgan;

“Oila va jamiyat” va “Anaheim Bulletin” gazetalari bazasida 1991-2020-yillar oralig‘idagi uch dekadada nashr etilgan maqolalar tarkibidan miqdoriy me’yorlashtirilgan o‘zbek va ingliz gazetalari mediamatnlari diaxronik korpusi (https://mediatextcorpus.com/) yaratilgan;

diaxronik lisoniy korpuslar yaratish va ularni takomillashtirishning amaliy va nazariy tamoyil hamda ko‘nikmalari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Tadqiqot yuzasidan chiqarilgan xulosalar tadqiqotchi tomonidan e’lon qilingan ilmiy ishlarda o‘z ifodasini topganligi hamda bu xulosalar ilmiy jamoatchilik tomonidan ijobiy baholanganligi, diaxron mediamatnlar korpusining xususiyatiga oid qo‘yilgan muammo kontent tahlil, tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, statistik, kognitiv, korpus va empirik tahlil metodlari asosida aniqlab berilgani, taklif hamda tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati izlanish xulosalaridan o‘zbek tilining diaxronik korpuslarini yaratish va uni mukammallashtirishning nazariy asoslarini ishlab chiqishda, korpus lingvistikasi yo‘nalishida tadqiqotlar olib borishda ilmiy-nazariy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bugungi kunda ilmiy izlanish metodologiyasi sifatida qaralayotgan bo‘lsa-da, yaqin kelajakda fan sifatida taraqqiy etishi kutilayotgan korpus lingvistikasini o‘qitish jarayonida dastur, rejalar tuzish

hamda mavzularni bayon etishda nazariy manba vazifasini o‘tashi, sinxronik hamda diaxronik korpuslarni yaratish va mavjud korpuslarni qo‘llash bo‘yicha amaliy namuna bo‘la olishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Korpus lingvistikasi rivojida diaxronik korpuslar tadqiqini nazariy anglagan holda ingliz va o‘zbek gazeta matnlari korpusini yaratish orqali til rivoji tadiqiqining empirik tahlil tamoyillarini ochib berish bo‘yicha ishlab chiqilgan amaliy taklif va tadqiqot natijalari asosida:

ingliz, rus, xitoy, arab, ispan va koreys tillarining mavjud diaxronik korpuslar manbasiga qo‘yiladigan xronologik uzviylik, transliteratsiya, davriy aniq miqdor, vaqt oralig‘ining qat’iyligi kabi me’yorlari orqali lisoniy korpuslar bazasi bilan ishlash tamoyillarining autentiklik hamda reprezentativlik kabi funksional jihatlari ochib berilishiga oid tahlillardan Mahalla va oila ilmiy-tadqiqot institutining 2022-2023-yillarda bajarilgan JHBL-94 – sonli “Chekka qishloq hududlardagi ayollar daftari”ga kiritilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlarga kompyuter grafikasi dasturlarini o‘qitish orqali ularni ish bilan ta’minlash” nomli amaliy loyihasida foydalanilgan (“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutining 2023-yil 4-sentabrdagi 01-09/1607-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha ishtirokchilarida diaxronik korpus yaratish, ularni amalda qo‘llashning tizimli metodlari borasida ilmiy-amaliy ko‘nikmalar hosil qilingan;

o‘zbek tili lisoniy korpuslarining sinxronik korpus tamoyillariga mosligi hamda dunyoning lisoniy manzarasidagi lingvomadaniy evrilishda tillarning leksik qatlam yaruslaridagi tadrijiy rivojini dalillash orqali o‘rganilayotgan tillar diaxronik korpusini yaratishning xronologik tartib, davriy qamrov, lingvistik va ekstralingvistik omillari ilmiy asoslanganliga doir nazariy qarashlar hamda tahlillardan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi jurnallarining birlashgan tahririyati faoliyatida hamda O‘zbekiston milliy teleradiokomaniyasining “Foreign languages” telekanalida namoyish etilgan “Good Morning Uzbekistan” ko‘rsatuvida unumli foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligi “Guliston” va “Teatr” jurnallari birlashgan tahririyatining 2023-yil 20-oktabrdagi 43-son ma’lumotnomasi hamda O‘zbekiston milliy teleradiokomaniyasi O‘zbekiston teleradiokanali davlat muassasasining 2023-yil 27-noyabrdagi 01-23-1774-son ma’lumotnomasi). Natijada tahririyat a’zolari hamda ko‘rsatuv mas’ullari yordamida o‘zbek tilining diaxronik korpusini yaratishga bo‘lgan ehtiyojning mavjudligi ommalashtirilgan;

“Oila va jamiyat” va “Anaheim Bulletin” gazeta materiallarining xronologik ketma-ketlikdagi o‘ttiz yillik bazasini qamrab, o‘rganilayotgan tillar tarkibida umumiy hamda yillik statistik tahlil tamoyillarini avtomatik bajaruvchi o‘zbek va ingliz mediamatnlari diaxronik korpusi (https://mediatextcorpus.com/) veb-dasturi yaratish orqali turli tizimli tillarda kollokatsiyalarning xronologik birikuvchanligiga oid istorizmlar tadrijiy aniqlanganligiga oid ilmiy farazlar hamda veb-dastur O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga 2023-yil 16-yanvarda taqdim etilgan DGU 2023 0264-raqamli talabnoma tegishli tekshiruvlardan o‘tkazilgach, O‘zbekistion Respublikasining “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to‘g‘risida”gi Qununiga asosan rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilgan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya

vazirligining 2023-yil 3-fevraldagi DGU 21899-son guvohnomasi). Natijada amalga oshirilgan tadqiqot natijalari va yaratilgan diaxronik korpusga nisbatan muallif huquqimizning kafolatiga yuridik asos qo'lga kiritilgan;

tillararo lingvomadaniy tushunchalarning konseptual freymini ishlab chiqish orqali tadqiq etilayotgan tillar bazasida tahlilga tortilayotgan lingvokulturemaga oid milliy, siyosiy va ijtimoiy yondashuvning o'zgarib borish tendensiyalarini tadrijiy kuzatish imkoniyatining mavjudligi isbotlanganiga oid ilmiy xulosa va takliflardan 2020-2021-yillarda O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida amalga oshirilgan "O'zbek milliy raqs san'atini targ'ib etishga bag'ishlangan veb-sayt va multimediamahsulotlari to'plamini yaratish" mavzusidagi FZ-2022081663 raqamli fundamental ilmiy-amaliy loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi huzuridagi O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2023-yil 8-iyundagi 01/04-61-son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbekcha va inglizcha gazeta materiallari bazasida tillarning lug'at qatlamida milliy raqs san'ati terminlarining boyish darajasini empirik kuzatish imkoniyatini chuqur o'rganishda dissertatsiya ilmiy manba sifatida xizmat qilgan;

diaxronik korpuslar vositasida o'rganilayotgan tillar lug'at qatlami rivojining asosiy hodisalari: neologizmlar va arxaizmlarni qayd etib borish funksiyasi imkoniyatlarining mavjudligi empirik dalillanganligiga doir amaliy taklif va tavsiyalardan Germaniya akademik almashinuv xizmati DAAD tomonidan moliyalashtirilgan ID-57663348-sonli "European Perspectives in Dialogue: Central Asia and Western Research – Muloqotda Yevropa istiqbollari: Markaziy Osiyo va G'arb tadqiqotlari" nomli loyihada foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2023-yil 25-sentabrdagi 06-01-0425-son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek va ingliz tillari leksikografiyasi rivojida muhim hissa qo'shishi jihatidan ahamiyatli neologizmlar va arxaizmlarning lug'at qatlamida sodir bo'lish xronologiyasi to'grisidagi nazariy bilimlar Germaniyaning Gottingen universiteti magistrlari hamda professor-o'qituvchilariga seminar shaklida tushuntirilgan.

Tadqiqot natijalarning aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari bo'yicha 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda qilingan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, 1 ta chastotali-izohli terminologik lug'at, 2 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish uchun tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, ulardan 10 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat bo'lib, umumiy hajmi 236 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor

yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “Til rivoji tadqiqida korpus lingvistikasi metodologiyasining o‘rni” nomli birinchi bobida korpus lingvistikasi, korpus tahlil metodlari yordamida til leksik qatlamining boyish mexanizmlari tadqiqi, mediamatnlar tilning ijtimoiy ifodasi hamda til boyishining asosiy resursi ekanligi hamda mavjud diaxronik korpuslarning funksional xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan nazariy tahlillar amalga oshirilgan dunyo va mamlakat miqyosidagi tadqiqotlar izohlangan.

Korpus lingvistikasi lisoniy korpuslar yaratish amaliyoti orqali tilni tadqiq etuvchi tilshunoslikning alohida sohasi hisoblanadi. Soha rivoji til korpuslarining lingvistik muammolarga yechim topishda keng qo‘llanilishi bilan chambarchas bog‘liq. Ma’lumki, korpus lingvistikasi asosan lug‘atshunoslikka oid tadqiqotlarga yo‘naltirilgan metodlar jamlanmasiga ega bo‘lsa-da, ularni stilistika, sintaksis, til o‘qitish metodikasi hamda til rivoji tadqiqiga oid boshqa fan tarmoqlariga mos ravishda ishlatish mumkin. Uning bugungi kunga qadar taraqqiyot tavsifi yuqoridagi fikrni yaqqol dalillaydi.

Korpuslar onlayn tizimga o‘tishi ortidan qidiruvga berilgan leksik birliklarni topish tezligi oshdi va foydalanuvchilar soni tobora kengayib bormoqda. To‘g‘ridan to‘g‘ri kirish veb-brauzer orqali onlayn qidiruvda amalga oshiriladi. M. Davies to‘rtinchi avlod konkordanserlarini gibrid korpuslar deb ataydi, chunki ularning interfeysi morfemik, leksik, sintaktik va frazeologik birlik darajalarida korpus yaratish va so‘zlarning faollik darajalariga oid tahlilini o‘tkazish uchun o‘ziga xos umumiy maydon hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ko‘p tilli aholi tarkibidan tashkil topgan Hindiston uchun milliy til korpusini yaratish amaliyoti bir qancha murakkabliklarni keltirib chiqaradi, zero, ushbu davlat konstitutsiyasida 2 ta milliy hamda 22 ta mahalliy til davlat tili sifatida qabul qilingan. Bizningcha, ushbu bir davlat hududidagi tillar o‘zaro munosabat, muloqot va yagona mediamakon ta’sirida bir-birlarini to‘ldirib, o‘z o‘rnida bir-birlarining lug‘at boyliklarining qisqarishiga sabab bo‘lmoqda. Nazarimizda, ushbu millat uchun ko‘p tilli korpusning yaratilishi tillarning ayni paytdagi rang-barangligini saqlab qolardi.

Bu haqida hind tilshunos olimi N. Dash ham aynan yuqoridagi fikrlarni ma’qullagan holda shunday deydi: “Ko‘p tilli davlat sifatida Hindiston til gigantidir. U turli etnik va lingvistik jamoalarning ko‘p sonli mavjud “tirik” tillarini saqlab kelmoqda. Korpuslarning yetishmasligi tufayli bu tillarning o‘z texnologik taraqqiyotiga erisha olmayotganligidan aziyat chekmoqda. Korpuslarni yaratish savodxonlik darajasini oshirish, yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan hind tillarini saqlab qolish, ingliz tilining haddan tashqari tajovuzidan o‘z

ahamiyatini yo‘qotgan tillarni himoya qilish uchun til ta’limini jadallashtirishi mumkin. Korpuslar ularga lingvistik imperializm muhitida muomalada qolishga yordam berishi mumkin bo‘lgan yagona lisoniy bazalardir. Bundan tashqari, u yo‘qolgan mavqeyini tiklash uchun statistik jihatdan ishonchli ma’lumotlarni taqdim eta olishi bilan xarakterlidir”[12]. Olimning bu boradagi xavotiri o‘rinli, aynan globalashuv davrida tadqiqotlar to‘g‘ri yo‘naltirilmasa, tillarning bugungi rivojida boshqa tildagi ommalashgan mediamatn elementlari oqimining ortishi oqibatida kuchsiz tillar yo‘qolib ketishi yoki xitoy tilining mandarin shevasidek ko‘plab chet tillarini singdirishga mahkum bo‘lib qoladi. Olib borilgan tadqiqotda ham aynan mana shu masalaga alohida e’tibor qaratildi. Zero, tadqiqot obyektlari bo‘lgan materiallar tahlili asosida xulosa qiladigan bo‘lsak, rivojlanishda, ishlab chiqarishda takomillashgan tillar borki, ularning ta’siri mediamakon prizmasida kengayib borishi inobatga olinganda, o‘zbek tilining ham diaxronik korpusini yaratish amaliyotini yo‘lga qo‘yish zamonning ayni talabi demakdir.

Fikrimizcha, har qanday jamiyat borki, boshqa bir insonlar guruhi bilan muloqotga ehtiyoj sezadi. Bu muloqot yaqinlashgani sayin quyidagi bosqichda va ketma-ketlikda til rivojiga ta’sir etib boradi:

1. Ijtimoiy qarashlar o‘zaro uyg‘unlashadi.
2. Diniy e’tiqod va dunyoviy idiologik yaqinlashish sodir bo‘ladi.
3. O‘zaro ilmiy, texnik va maishiy yutuqlar hamda ixtirolar baham ko‘riladi.
4. Kiyinish, urf-odat, marosimlar, bir so‘z bilan aytganda, madaniyatlar interferensiyasi yuzaga keladi.
5. Yuqoridagilar oqibatida leksik qatlam tillar interferensiyasi ta’sirida o‘zgarib, boyib boradi.

Umuman olganda, ta’kidlab o‘tganimiz yuqoridagi besh bosqichli uzviylikda boradigan tillar interferensiyasi bilan tugovchi jarayon bugungi kecha-kunduzda yanada jadallashib bormoqda. Chunki muloqotning hozirgi jarayoni faktorlari oldingi odam-odam va jamiyat-jamiyat kategoriyasidan tubdan farq qilib, axborot almashinuvining yangi, zamonaviy shakllari asosida qurilmoqda. Bizningcha, bu mediamaydondagi muloqotning tezlashishi madaniyatlar va tillar sofligining hamda rang-barangligining ko‘lamini haminqadar qisqartirib bormoqda. Shuning uchun, tadqiqot obyekti bo‘lgan til rivoji tadqiqi korpuslar prizmasidan statistik asoslab o‘rganilmas ekan, tillarning bugungi holatini saqlab qolish, kelajakdagi tadqiqotlarga asos sifatida qoldirish amaliyoti yuzaga chiqmaydi.

Shuningdek, so‘nggi yillarda respublika miqyosida himoya qilingan dissertatsiyalarda ham mediamatnning lisoniy xususiyatlari alohida tahlilga tortilmoqda, ular turkumiga quyidagilarni kiritish mumkin: S.A. Atkamovaning turli tizimli tillar gazeta matnlari asosida frazeologizmni ifodalash va baholashning uslubiy vositalari[13], Sh.A. Usmonovaning mediadiskursda gazeta tili

---

[12] Dash N.S. Language Corpora: Present Indian Need. – Indian Statistical Institute, Kolkata. 2004. – P 1. Available at https://www.researchgate.net/publication/2938590_Language_Corpora_Present_Indian_Need

[13] Атқамова С. А. Фразеологизм медиаматнда ифодалаш ва баҳолашнинг услубий воситаси сифатида (турли тизимли тиллар газета матнлари асосида): Филол.фан.фалс.д-ри (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – 58 б.

tendensiyalari[14], N.S. Nasrulloyevaning oʻzbek va ingliz tillarida kompyuter va internet jargonlarining chogʻishtirma tadqiqiga oid izlanishlari[15], M.R. Artikovaning mediamatnda presedent fenomenining lingvomadaniy aspekti tahliliga oid tadqiqotlari aynan mediadiskursiga oid lisoniy muammolar yechimiga qaratilgan[16]. Aksariyat olimlar ommaviy axborot vositalarini isteʼmolchi sifatida tadqiq etishadi: faqat turli ishlab chiqarish shakllari orqali, ommaviy axborot vositalarini sanoatning yakuniy natijasi – mahsulot reklamasi haqida xabar beruvchi tizim sifatida oʻrganishadi. Yaʼni gazeta, jurnal va komikslarni oʻqiymiz, filmlar va telekoʻrsatuvlar tomosha qilamiz, radio va musiqa tinglaymiz, shuningdek, internetdan foydalanamiz va kompyuter oʻyinlarini oʻynaymiz va, albatta, turli joylarda turli mediamahsulotlarga duch kelamiz – qoʻshiq radioda, filmga saundtrek sifatida yoki fonda taqdim etilishi mumkin.

Dissertatsiyaning **"Diaxronik korpuslar yaratish nazariyasi va bosqichlari"** deb nomlangan ikkinchi bobida ingliz va oʻzbek mediamatnlar diaxronik korpusini yaratishning nazariy va amaliy ahamiyati, diaxronik korpus yaratishda baza va meʼyor tamoyillari va ularni yaratish bosqichlari izchilligi tavsifi tadqiq qilingan.

Diaxron va sinxron tadqiqotlar va yondashuvlarga toʻxtalinganda, *sinxron* va *diaxron* lingvistik tahlilga bir-birini toʻldiruvchi ikki nuqtai nazar sifatida qarash oʻrinlidir. *Sinxron* yondashuv (qadimgi yunonchadan: syan – "birga" va chrós – "vaqt") tilni uning tarixini hisobga olmagan holda vaqtning bir lahzasida koʻrib chiqadi. Demak, sinxron tilshunoslik tadqiq etilayotgan tilni muayyan vaqtning oʻzida, yaʼni ayni hozirgi zamon doirasida tasvirlash, tahlil qilish va oʻrganishga qaratilgan. Bundan farqli ravishda, diaxron (dia – "orqali" va chrós – "vaqt" soʻzlaridan) yondashuv, tarixiy tilshunoslikda boʻlgani kabi, tilning tarix orqali rivojlanishi va evolyutsiyasini koʻrib chiqadi[17].

Oʻzbekcha elektron Qomus lugʻatida diaxron tadqiqotlar quyidagicha izohlanadi: *Diaxroniya – til tizimining lingvistik tadqiqot manbai sifatidagi tarixiy taraqqiyoti, til taraqqiyotini vaqt nuqtayi nazaridan oʻrganish.* Tilshunoslikda diaxroniya tushunchasi sinxroniyaga qarama-qarshi qoʻyiladi. Diaxronik tilshunoslik baʼzan qiyosiy-tarixiy tilshunoslik hamda tarixiy fonetika bilan aynan bir fan tarmoqlari deb qaralgan. Keyinchalik uning tadqiqot obyekti sifatida tildagi oʻzgarishlarni, bu oʻzgarishlarning sabablarini, paydo boʻlish davrini oʻrganish nazarda tutildi. XX asrning 2-yarmida diaxronik yondashuv, til tarixini davrlarga boʻlib oʻrganish bilan bogʻliq sof tarixiy yoʻnalishdan farqli oʻlaroq, til tizimida sodir boʻladigan diaxronik oʻzgarishlarni, tilning tizim sifatidagi taraqqiyoti qonuniyatlarini oʻrganishga qaratildi. Diaxroniya til faoliyati xususiyatlarini

[14] Усмонова Ш.А. Медиадискурсда газета тили тенденциялари (ўзбек ва инглиз тиллари мисолида): Филол.фан.фалс.д-ри (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – 56 б.

[15] Насруллоева Н. С. Ўзбек ва инглиз тилларида компьютер ва интернет жаргонларининг чоғиштирма тадқиқи: Филол.фан.фалс.д-ри (PhD) дисс. автореф. – Самарқанд, 2021 – 57 б.

[16] Артикова М.Р. Медиаматнда прецедент феноменининг лингвомаданий аспекти (ўзбек ва испан газеталари мисолида) : Филол.фан.фалс.д-ри (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2022 – 54 б

[17] Giacalone Ramat, Anna; Mauri, Caterina; Molinelli, Piera, eds. (2013). Synchrony and Diachrony: A dynamic interface. Philadelphia, Pennsylvania: John Benjamins North America. pp. 17-18. ISBN 978-9027272072. [Retrieved on January 3, 2024]

zamonda, jumladan, sinxroniyada bilishga imkon beruvchi vosita boʻlib, umuman, til nazariyasining muhim qismidir[18].

Diaxronik tilshunoslik tushunchasi nazariy manbalarda tarixiy / qiyosiy tilshunoslik bilan bir xil tushuncha sifatida qaralishini kuzatish mumkin. Maʼlumki, qiyosiy tilshunoslik – tilshunoslikning qarindosh tillarni, yaʼni genetik jihatdan oʻzaro bogʻliq tillarni oʻrganuvchi, ular oʻrtasidagi munosabatlarni aniqlovchi hamda ularning zamon va makon boʻyicha tadrijiy taraqqiyotini tavsiflovchi sohasi; til oilalarining, shu tizimlardagi ayrim tillar va elementlarning kelib chiqishini aniqlash, jumladan, tillar oʻrtasidagi genetik qarindoshlikni – ularning yagona bir manba (bobo til)dan kelib chiqqanligini aniqlash (tillarning genealogik tasnifi) ham qiyosiy / tarixiy tilshunoslikning maqsadlari doirasiga kiradi[19].

Aynan tarixiy tilshunoslikning asosiy vazifalari turiga kiruvchi genetik tasniflashga doir ilmiy qarashlarga tayangan holda, qiyoslanayotgan tillarning ushbu tasnifning qaysi turiga mansubligini koʻrib chiqish oʻrinli. Ingliz tili *hind-ovrupo tillari oilasi*ga kiruvchi *german tillar guruhi*ga kiradi. Oʻzbek tili esa *turkiy tillar oilasi*ga, ikkinchi qarashga koʻra, ushbu oila *oltoy tillar katta oilasiga* mansubligi aytiladi. Yana ham aniqroq aytganda, oʻzbek tili turkiy tillar oilasiga kiruvchi *qarluq guruhiga* kiritiladi va bu borada oʻzbek tiliga eng yaqin til *yangi uygʻur tillari* hisoblanadi[20].

Shunday ekan, *diaxron* terminining korpus lingvistikasiga ham kiritilishi uning mazmuniy va vazifaviy xususiyatlariga soya solmaydi. Yaʼni diaxronik korpus turli davrlardagi matnlarni oʻz ichiga olgan korpus boʻlib, tilning rivojlanishi yoki oʻzgarishini tadqiq qilish uchun ishlatiladi. Bu borada M. Hilpert va S.Th. Gries kabi olimlarning talqinicha, diaxronik korpus deganda, hozirgi ogʻzaki ingliz tilining diaxronik korpusida boʻlgani kabi, ketma-ket vaqt oraligʻida tildan foydalanishning oʻxshash turlarini ifodalovchi matn resurslari tushuniladi, ushbu xususiyat mohiyatiga koʻra korpus kamida ikki vaqt oraligʻini oʻz ichiga qamrab olishi talab etiladi[21].

Demak, diaxronik korpus tushunchasi korpus lingvistikasi fan tarmogʻida muhim ahamiyatga ega boʻlib, korpus tahlil metodlaridan foydalanishning yangi bosqichini yuzaga chiqargan. Bizningcha, diaxronik korpuslardan tilshunoslikning quyidagi sohalarida qoʻllash orqali quyidagi ilmiy-nazariy savollarga maqbul yechim izlash maqsadida yangicha yondashish joiz:

birinchidan, diaxronik korpuslar lugʻatshunoslik sohasida qoʻllanilib, unda izohtalab soʻzlarning nafaqat qoʻllanishiga oid xronologik maʼlumot, qolaversa, korpus tarkibidagi manbaning tizimli tanlanganligiga qarab, uning etimologiyasiga ham nazar tashlay oladi;

---

[18] https://qomus.info/oz/encyclopedia/d/diaxroniya/ [murojaat sanasi 31.01.2024]

[19] Tomsen V., Istoriya yazmkoznaniya do konsa XIX veka, M., 1938; Meye A., Vvedeniye v sravnitelnoye izucheniye indoyevropeyskix yaznkov, 3 izd., per. s frann., M. — L., 1938 available at https://openlibrary.org/books/OL16367943M/Istoriya_yazykovedeniya_do_kontsa_XIX_veka [retrieved on December 5, 2023]

[20] Irisqulov A.T. Tilshunoslikka kirish. / Darslik. – Toshkent: "Yoshlar matbuoti" bosmaxonasi. 2009. – B. 185-187

[21] Hilpert M. and Gries S.Th. Quantitative approachesto diachronic corpuslinguistics / The Cambridge Handbook of English Historical Linguistics // - Publisher: Cambridge University Press, 2016. – P. 36 Available from https://www.researchgate.net/publication/325893284_Quantitative_approaches_to_diachronic_corpus_linguistics

ikkinchidan, diaxronik korpuslar bir vaqtning o'zida tarixiy korpus tushunchasi bilan bir xil maqomda qo'llaniladi hamda til rivoji tadqiqini o'rganishga alohida e'tibor qaratadi. Jumladan, leksikologiyaning eskirmas muammolari tarkibiga kiruvchi neologizmlar, arxaizmlar, istorizmlar kabi ilmiy muammolarga aniq statistik yechimlarni taklif etadi;

uchinchidan, diaxronik korpuslar gender tilshunosligi sohasida qo'llanilishi jahon tilshunosligida mavjud amaliyotlar sirasiga kiradi. Bu o'rinda, tarixiy korpuslar qarama-qarshi jins vakillarining ijod namunalari ayri holda jamlangan, davrlashtirilgan korpus bazalarini shakllantirish orqali ayol yoki erkak yozuvchilarning hayot falsafasi, dunyoqarashi, his-tuyg'ularni aks ettirish uslublarini ular yozgan badiiy asarlar, yozishmalar, gazeta yoki jurnal maqolalari hamda intervyu / suhbatlar namunalari asosida lingvostatistik tahlil qilib aniqlash imkoni mavjud;

to'rtinchidan, diaxronik korpuslar yaratish amaliyoti manbashunoslar, tarjimonlar va tarixiy asarlar yozishni maqsad qilgan shoir hamda yozuvchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali, yuqorida sanab o'tilgan til ixlosmandlari diaxronik korpus qamrab olgan davrda qo'llanilgan faol leksik qatlamdan foydalangan holda tadqiq qilinayotgan vaqt oralig'idagi madaniyat, millat va tilning haqiqiy ruhiyatini his qiladi hamda uni qo'llash orqali shu ruhni saqlab qoladi;

beshinchidan, bizningcha eng muhimi, bugungi kunda rivojlanib borayotgan tezkor zamonda, iqtisodiy rivojlangan xalqlar va ularning tillari yashab qoladi. Bundan keskin fikrni bildira turib, o'ylaymizki, diaxronik korpuslar yaratish orqali tillararo interferensiya chiziqlarini statistik tahlil qilish orqali, til sohiblarini ushbu oqimdan saqlashga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu kabi diaxronik korpuslarni qo'llashga doir ilmiy farazlarni ko'plab sanab o'tish mumkin. Fikrimizcha, agar diaxronik korpuslardan oqilona foydalanilsa, ularning tarkibi belgilangan me'yorlarga ko'ra to'g'ri shakllantirilsa, bu turdagi korpus tahlillari asosida dunyo tillarini o'zaro tarixiy aloqadorlik, siyosiy va hududiy yaqinlik, iqtisodiy qaramlik va hokazo madaniy hamda ijtimoiy jihatdan qayta tasniflash imkoniyati yuzaga chiqadi.

Bu o'rinda, diaxronik korpuslarni yaratish amaliyotida ingliz tilining ancha ildamlab borayotganini inobatga olganda, ushbu tilda yaratilgan shu turdagi korpuslarni sanab o'tish, ularning hajmi va xususiyatlarini inobatga olganda, o'zbek tilining tarixiy/ diaxronik korpusini yaratishga bo'lgan ehtiyoj aniq planda ko'zga tashlanadi. Bugungi kunda martinweisser.org saytiga ko'ra, diaxronik korpuslar hajmi soni, korpus yaratilgan davriga mos ravishda me'yorlashtirilgan holda yaratilishi ahamiyatlidir. Saytda sanab o'tilgan inglizcha diaxronik korpuslarning ba'zilari quyida izohlandi[22]. "1-jadvalga qarang".

---

[22] *Historical & Diachronic Corpora* Available from
http://www.martinweisser.org/corpora_site/historical_corpora.html [Retrieved on 04.02.2024]

Inglizcha *tarixiy / diaxronik* korpuslar

ARCHER Corpus (A Representative Corpus of Historical English Registers)	1650–1990-yillar oralig'idagi tarixiy davrlardan olingan ilk zamonaviy ingliz tiliga mansub yozma va "nutqqa asoslangan" janrlardan shakllangan jami 955 ta matn, ya'ni 1 789 309 ta so'zni o'z ichiga oladi.
Brooklyn-Geneva-Amsterdam-Helsinki Parsed Corpus of Old English	Ingliz matnlarining Xelsinki korpusining qadimiy ingliz bo'limi 5 000 dan 10 000 so'zgacha bo'lgan qadimiy ingliz tili tarkibidan olingan manbalar asosida 106 210 so'zni o'z ichiga oladi.
Century of Prose Corpus	1680–1780-yillar oralig'ida yashab ijod qilgan jami 120 muallif ijodi asosida nashr etilgan adabiy va adabiy bo'lmagan ingliz tilidagi yarim million so'zdan tarkib topgan.
Complete Corpus of Old English	Toronto universitetida tuzilgan barcha qadimiy ingliz tili davrida yaratilgan 3022 ta matnlarni ifodalovchi korpus.
Corpus of English Dialogues, 1560-1760 (CED)	Erta zamonaviy ingliz tilidagi nutq shakllarini ifoda etuvchi 177 ta matndan tashkil topgan korpus 1 million 200 ming so'zni o'z ichiga oladi.
Corpus of Newsbooks	1653-yil dekabrdan 1654-yil maygacha *Tomason* nashriyotida chop etilgan barcha gazetalardan olingan taxminan 800 000 so'zdan tarkib topgan matn.
Corpus of Early English Correspondence (CEEC) & the Parsed Corpus of Early English Correspondence (PCEEC),	Korpus umumiy hisobda jami 2 million 700 ming so'zdan tashkil topgan bo'lib, u o'z ichiga 1410-yildan 1681-yilgacha 450 ming so'z; 1402-1663 yillardan "Erta yozishmalar korpusi" 50 ming atrofida so'z; 1681–1800-yillarni qamrab olgan oraliqdan jami 2 million 200 ming so'z kiritilgan.
Corpus of Early English Medical Writing & Corpus of Middle English Medical Texts (MEMT)	1375–1800- yillardagi tibbiy nashrlar va qo'lyozmalar korpusi bo'lib, 10-12 ming so'zli risolalar bilan to'ldirilgan hamda o'rta asrlar bo'limi 500 minga yaqin so'zlarni o'z ichiga oladi.
The Málaga Corpus of Early English Scientific Prose	1350–1900-yillarda ishlab chiqilgan tibbiy materiallarni o'z ichiga olgan tarixiy diaxronik

	korpus. Korpus deyarli olti yuz yillik davrni o'z ichiga olgan uchta subkorporaga bo'lingan taxminan olti million so'zni o'z ichiga oladi.
Newdigate Newsletters	1674–1692-yillarga tegishli qo'lyozma nashrlardan jami 750 ming so'zdan iborat.
TIME Magazine Corpus	TIME jurnalining 1923–2006-yillar oralig'idagi nashrlari negizida shakllantirilgan 100 million so'zdan iborat korpus. Vaqt o'tishi bilan so'z va iboralarning qo'llanishi yoki kamayishi, ma'nosi o'zgarganligini ko'rish imkonini beruvchi ma'lumotlar bilan ta'minlaydi.
Zürich Corpus of English Newspapers (ZEN)	1660-yillardan XX asr boshlarigacha bo'lgan vaqt oralig'idagi London gazeta nashrlaridan tashkil topgan.

Yuqorida sanab o'tilgan lisoniy korpuslarni ingliz korpus lingvistikasining yutuqlari sifatida e'tirof etgan holda, o'zbek tili doirasida ham bu borada bir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilayotganini ta'kidlash joiz. Ular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. O'zbek tilining ilk til korpusi sifatida qaralayotgan *uzbekcorpus.uz* elektron korpusi filologiya fanlari doktori (DSc), professor N.Z.Abdurahmonova boshchiligidagi loyiha a'zolari tomonidan bir necha yillik olib borilgan tadqiqotlar, ilmiy hamkorlik va loyihalardan olingan natijalar mahsuli hisoblanadi. O'zbek tili korpusi o'zbek tilida yaratilgan lingvistik lug'atlar, web sahifalar, o'zbek tilining morfologik ma'lumotlar bazasi, o'quv adabiyotlar hamda turli janrdagi ilmiy, rasmiy va badiiy matnlar majmuasidan tashkil topgan. Korpus – og'zaki va yozma matnlar yig'indisi sifatida, ma'lumotlarni boshqarish va foydalanish imkoniyatiga ega dasturiy ta'minot hisoblanadi. Ushbu korpusning tarkibida ichki – subkorpuslar ham mavjud: parallel korpus, mualliflik korpusi, ta'limiy korpus[23].

2. O'zbek tilining ta'limiy korpusi https://uzschoolcorpara.uz/ havolasida mavjud. Ta'limiy korpus ona tili hamda xorijiy tilni o'rganishda birdek ahamiyatli. Tilni o'rgatishda lug'at boyligining kattaligini ko'rsata olish, so'zning qo'llanish imkoniyatini u yoki bu grammatik konstruksiya orqali tushuntirish uchun misollar massivini ko'rsatishda korpus juda qo'l keladi. Til ta'limi uchun muhim bo'lgan misolning doimiy yangilanib borishi, buni aks ettirib turish xususiyati hamda imkoniyati faqat korpusda mavjud. O'qituvchi yangi, ishonarli, cheksiz hamda xilma-xil misollarni shu yerdan topa oladi, topshiriq, mashqlarni belgilashda qiynalmaydi, bir necha daqiqada mavzu bo'yicha yangi-yangi misollardan iborat topshiriqlarni tayyorlay oladi[24]. Tizim mualliflari qatorida t.f.f.d.(PhD), dots.

---

[23] https://uzbekcorpus.uz/aboutCorpus [murajaat sanasi 02.02.2024]
[24] https://uzschoolcorpara.uz/#home [murajaat sanasi 02.02.2024]

B.B. Elov, f.f.d., prof. B.R.Mengliyev, f.f.d., dots. Sh.M. Hamroyeva va boshqalar kiradi.

3. *Uzbek community corpus based on material from 2017* (2017-yildan to'plangan manbalar asosida yaratilgan o'zbek jamiyati korpusi) Leipzig universiteti, Leipzigdagi Saksoniya fanlar va gumanitar fanlar akademiyasi va Amaliy informatika instituti loyihasi asosida tuzilgan bo'lib, o'z ichiga jami 663 ming 119 ta gapdan iborat 9 million 256 ming 1 ta so'zni qamrab oladi[25]. Ushbu korpus avtomatik internet materiallari tarkibidan jamlanganligi tufayli o'zbek tilining bugungi kundagi muammolaridan biri bo'lgan alfavit, ya'ni, internet sahifalarida yuklanadigan matnlar ikki xil lotin va kirill grafikasida kiritilishi oqibatida qidiruv jarayonida so'zlar ikki turli grafikada alohida izlanishi murakkablik tug'diradi.

4. O'zbek tili milliy korpusi dasturiy mahsulot sifatida O'zbekiston Respublikasi innovatsiya vazirligining 2021 yilgi 30-turdagi "O'zbek tilining milliy korpusini loyihalash va dasturiy majmua ishlab chiqish" (2020-2022) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan. O'rnatilgan tartibda o'tkazilgan tanlov natijalari bo'yicha ushbu loyihani bajarish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi bilan shartnoma tuzilgan[26]. Ushbu korpus http://uzbekcorpora.uz/ havolasida mavjud.

Yuqorida sanab o'tilgan o'zbek tili korpuslarining hech biri diaxron korpuslar sirasiga kirmaydi. Aksincha, korpuslar xronologik tartiblanmaganligi, tarixiy ketma-ketlikda matnlarning kiritilmaganligi bois ularni sinxron korpuslar rukniga daxldor deyish mumkin.

O'zbek tili diaxronik korpusining yaratilishiga bo'lgan ehtiyoj ayni mana shu hozirgi kunda mavjud o'zbek tili korpuslarining yuqoridagi tavsifiga uzviy bog'liq. Ya'ni bugungi kunda o'zbek tilining boyib borishini kuzatish uchun mo'ljallangan *monitor* korpuslarning mavjud emasligi bu boradagi ilmiy-nazariy xulosalarning ishonchliligini shubha ostida qoldiradi. Zero, tilning diaxronik korpusi tilning davriy o'zgarishlariga mos ravishda manbalarni jamlagan holda lug'at boyligining rivoji xususida aniq statistik ma'lumotni taqdim etadi.

Shu o'rinda mavjud tajribani qo'llagan holda, o'zbek tilining ham diaxronik korpusini yaratishga nazariy asos sifatida mazkur tadqiqot ishi amalga oshirilmoqda. Bunda, ikki tilli, ya'ni o'zbek va ingliz tillarining diaxronik korpusini ishlab chiqish ishning maqsadi etib belgilangan. Yozma va og'zaki matnlarni keng ko'lamda topish mumkin bo'lgan manba – mediamuloqot vositalari hisoblanar ekan, bizningcha, yaratilajak korpusimizning o'zagini aynan mediamatnlar asosida shakllantirish joiz. Demak, nazarda tutilgan korpusning jamlanishi olimlar va til o'rganuvchilarga quyidagi imkoniyatlarni yaratishi mumkin:

---

[25] *Leipzig Corpora Collection:* Uzbek community corpus based on material from 2017. Leipzig Corpora Collection. Dataset. https://corpora.uni-leipzig.de?corpusId=uzb_community_2017 [retrieved on 02.02.2024]

[26] http://uzbekcorpora.uz/buyurtmachi [murajaat sanasi 02.02.2024]

1-rasm. Ingliz va o'zbek mediamatnlar diaxronik korpusining ilmiy amaliy sohadagi dolzarbligi

Diaxronik / tarixiy korpuslar soni va hajmi bo'yicha o'sishda davom etmoqda, bugungi kunda ularni tahlil qilish usullari ham samaraliroq bo'lib, yanada takomillashmoqda. Shu bilan birga, murakkab diaxronik korpuslarni hisobga olmaganda, diaxronik ma'lumotlar tadqiqotchiga doimo muhim muammolarni yuzaga chiqarib beradi.

Diaxronik korpuslar foydalanuvchilar uchun kerakli manba sifatida e'tirof etilishi uchun uni, albatta, to'g'ri shakllantirish zarur. Fikrimizcha, yuqorida keltirib o'tilgan manbaga qo'yilgan talablarni diaxron xarakterdagi korpus bazalarini jamlashda va saralashda joriy qilish mumkin. Biroq diaxronik korpuslar uchun manba yig'ishning hamda uni korpus tarkibiga kiritishning ba'zi farqli tomonlarini inobatga olish o'rinli. Ular quyidagicha tasniflandi:

1. Diaxronik korpuslarda boshqa turdagi korpuslardan farqli ravishda xronologik uzviylikda, tarixiylikdan zamonaviylikka qarab yo'naltirilgan tartibda matnlarni yig'ish maqsadga muvofiq;

2. Dunyo tillari orasida ko'plab tillar tarixiy rivojida siyosiy noturg'unlik oqibatida yoki biror tarixiy voqelik ortidan yozuv grafikasida alfavit o'zgarishlarini boshidan o'tkazgan. Bunday tillarning qadimiy yoki tarixiy bitiklarini korpusga jamlaganda, matnlarni to'g'ri va aniq transliteratsiya qilish zarur. O'zbek tili ham yaqin tarixida bir emas, uch marta o'z yozuv grafikasini o'zgartirilganligi tufayli

bugun yig'iladigan diaxronik korpuslarga manba kiritishda ayni shu holat kuzatiladi hamda yechim yuqorida ta'kidlangandek bo'lsa, maqsadga muvofiq hisoblanadi;

3. Diaxronik korpuslar tarixiylik nuqtai nazaridan barcha davrlarda ham birdek manbaning mavjud emasligi sababli teng hajmda matnlar kiritish borasidagi me'yorga har doim ham amal qila olmaydi. Biroq yaratilayotgan korpus yaqin tarix, ya'ni 20-30 yil oldingi davrni qamrab olishi nazarda tutilsa, unda manbaning cheklanmaganligi tufayli miqdoriy chegaraga qo'yiladigan talab, ya'ni teng hajmda kiritish majburiyatiga amal qilish shart;

4. Har qanday diaxronik korpus yaratilishidan oldin tadqiqotchi tomonidan belgilab olingan davriylik oz muddatni emas, aksincha, kamida bir dekadali vaqt oralig'ini qamrab olishi kerak. Aksi holda, til rivoji tadqiqiga qaratilgan izlanishlar samarasi yuqori darajada bo'lmasligi ehtimoli yuzaga keladi.

"Gazeta materiallari asosida mediamatnlar diaxronik korpusini yaratish amaliyoti" nomli uchinchi bob diaxronik korpusni yaratishda matniy manbalar bilan ishlash mexanizmlari, asoslari va saralash xronologiyasi, korpus bazasini avtomatlashtirish va dizayn muammolari hamda yaratilgan korpusni baholash va chastotali qidiruv-tahlil natijalari tavsifini ochib berishga qaratilgan.

O'zbek tilshunosligi, xususan, leksikografiyada ham korpus lingvistikasi metodlaridan foydalanilganligini kuzatish mumkin, biroq ular aynan korpus tahlillariga asoslanganligi qayd etilmaydi. Masalan, *"O'zbek xalq dostonlarining chastotali izohli frazeologik lug'ati"*ni yaratish borasida qilingan ishlar sirasiga matniy birliklarning yig'ilganligi, ularni kompyuter xotirasiga kiritib, alfavit-chastotali lug'atlar olinganligi aytiladi: "… lug'atni tuzish jarayonida dastlab "Alpomish", "Ravshan", "Rustam" dostonlarining matnlari kompyuter xotirasiga kiritildi. Kompyuter xotirasida to'plangan ana shu matnlar asosida kompyuter yordamida 28499 so'z shaklidan iborat, uchta chastotali va uchta alfavit-chastotali lug'atlar olindi: "Alpomish" dostonining umumiy matn hajmi – 14029, ya'ni – 49,2 % ni; "Ravshan" dostoni – 7059, ya'ni 24,7 %ni, "Rustam" dostoni 7411 so'z shakli 26,2% ini tashkil qiladi. Matnlarni qayta tekshirish jarayonida mazkur matnlarda jami 1041 FB qo'llanganligi ma'lum bo'ldi, ular xalq dostonlari matnida 1641 marta qaytarilgani aniqlandi"[27]. Ko'rinib turganidek, biror o'rinda qaysi elektron yoki kompyuter dasturi qo'llanilganligi eslatib o'tilmaydi. Vaholanki, bu jarayon korpus lingvistikasining asosiy maqsadi bo'lgan *korpuslar yaratish* orqali lisoniy bazaga oid statistik axborotni tez fursatda olish imkonini yaratishga xos birlamchi vazifalar turkumiga kiradi.

Bizningcha, yuqoridagi holatni inobatga olganda, o'zbek lingvistikasi korpusga asoslangan nazariy tadqiqotlarning amaliy jabhalarda qo'llashga oid yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Demak, yaratilishi kerak bo'lgan korpuslar qatorida turuvchi *O'zbek va ingliz gazetalari mediamatnlari diaxronik korpusini yaratish* aynan shu turdagi natijaviy ilmiy izlanishlar sirasiga kiradi.

---

[27] O'zbek xalq dostonlarining chastotali izohli frazeologik lug'ati /B.Yo'ldoshev, D.O'rinboyeva; Mas'ul muharrir B.O'rinboyev; O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti. – Samarqand, 2013. – B. 4 https://elib.buxdupi.uz/books/34891.pdf

J. Sinclair[28] va F. Douglas[29] kabi olimlarning fikricha, korpusga kiritiladigan matnlarning ba'zilari uzun bo'lgani tufayli, ularning to'liq hajmini jalb etmasdan, balki matn bo'laklaridan foydalanish ba'zan matnning faqatgina bir turi ustun bo'lmasligi uchun korpusda qo'llaniladi. Biroq to'liq matnlardan foydalanishning ustunligiga doir ko'plab yondashuvlar mavjud, deya xulosa qilishadi. Bizning nazarimizda, olimlarning fikrlari o'rinli va matnlar hajman teng bo'lishi amaliyotda kamdan-kam uchragani bois, korpusga jamlanadigan matnning to'liq shaklini kiritish uning mazmunan va mantiqan tog'ri tahlil qilinishiga asos bo'ladi.

Bugungi kunda yaratilayotgan ko'plab korpuslar, xususan, o'zbek tilining zamonaviy korpuslari asosan onlayn, ya'ni internet materiallaridan shakllantirilayotganligini kuzatish mumkin. Bizningcha, korpus yaratish maqsad qilinganda, undan kutiladigan natijani inobatga olgan holda, imkon doirasida manbaning ishonchliligi, autentik ekanligi hamda eng muhimi uning ertangi kunga saqlanishiga e'tibor qaratilishi joiz.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, mediamatnlar diaxronik korpusini yaratishda material sifatida "Oila va jamiyat" va "Anaheim Bulletin" gazetalarining 1991-2020-yillar oralig'ida chop etilgan nashr sonlari tanlandi. Bu orqali ishonchlilik, reprezentativlik va haqqoniylik tamoyillariga asos bo'la oladigan materiallar sifatida e'tirof etilishi mumkin bo'lgan baza shakllantirildi. Bunda tanlab olingan o'zbek tilidagi "Oila va jamiyat" va ingliz tilidagi "Anaheim Bulletin" gazetalarining 30 yillik nashrlaridan olingan matnlar manba sifatida tanlanganligiga asos sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

Birinchidan, yuqorida aytilgan 30 yillik muddat, ya'ni 1991-2020-yillar oralig'i o'zbek tili uchun 1989-yil 21-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasining davlat tili to'g'risida"gi qonuniga muvofiq unga davlat tili maqomi berilganidan keyingi taraqqiyot, ya'ni tillarning samarali rivojiga mustaqillikning uchta o'n yilligi dolzarblik kasb etadi. Ingliz tilining ham aynan shu davrlarda chop etilgan gazeta nashrlaridan yig'ilgan matnlar bilan ishlash maqsad qilindi.

Ikkinchidan, "Oila va jamiyat" va "Anaheim Bulletin" gazetalari nisbatan kam o'rganilgan, haftalik chiqadigan, nashrlar chop ettirish boshlanish davri bir-biriga yaqin bo'lgan hamda eng muhimi ijtimoiy gazetalar sirasiga kirishi inobatga olinib, tanlangan. Yanada aniqroq aytganda, "Anaheim Bulletin" gazetasi 1966-yildan mustaqil gazeta sifatida Amerika Qo'shma Shtatlari Kaliforniya shtatida joylashgan eng ko'p aholi istiqomat qiluvchi Anaheim shahrida chiqarib kelinmoqda. Gazeta o'zining tarixida 1992-yilning 6-avgust sanasidan boshlab haftada bir marta chop etiladigan nashrlar sirasiga o'tgan, bu esa 1991-yil 5-sentabr sanasidan "Oila va jamiyat" gazetasining har haftaning payshanba kuni chop etilishi yo'lga qo'yilgan. Davriy yaqinlik mavjudligi hamda ular ko'taradigan ilm-fan, madaniyat, san'at, ishlab chiqarish, tadbirkorlik, qishloq xo'jaligi va yana bir nechta sohalarga bag'ishlangan ruknlari o'zaro qiyoslashga mos gazetalar ekanligini ko'rsatdi.

---

[28] Sinclair J. Corpus and text – basic principles. In M. Wynne (Ed.) // Developing linguistic corpora: A guide to good practice. Oxford: Oxbow Books. 2005. – pp. 1-16

[29] Douglas F. M. The Scottish corpus of texts and speech: Problems of corpus design // Literary and Linguistic Computing, 18(1). 2003. – pp. 23-37.

Uchinchidan, "Oila va jamiyat" va "Anaheim Bulletin" gazetalarining tanlangan davr oralig'idagi nashrlari arxivining mavjudligi, garchi har ikkala gazetalarning eski nashrlarida kompyuter o'qiy oladigan imkoniyatning mavjud emasligi kabi muammoning uchraginini inobatga olmaganda, aynan shu manbalar tanlanganiga asos bo'ladi.

Har ikkala baza o'zida gazetalarning skanerlangan holatini saqlovchi https://newspaperarchive.com/ hamda http://press.natlib.uz/ru/publications rasmiy saytlardan olindi. Ushbu saytlarda barcha ma'lumotlar foydalanuvchilar uchun ochiq ekanligi va cheklovlarning mavjud emasligi tadqiqotda tug'ilishi mumkin bo'lgan mualliflik huquqi (copyright) tamoyillariga zid harakat bajarilmagini ko'rsatadi. Matnlar bilan ishlash me'yorlari quyidagi tartibda uch bosqichda amalga oshirildi:

1-bosqich: https://newspaperarchive.com va http://press.natlib.uz rasmiy saytlaridan mavjud skanerlangan gazeta nashrlari to'plandi. Bunda, ularning katta hajmli jildlarda yillar kesimida, mavjud nashrlar ixtiyoriy tarzda, matnlarni o'qiy olinishidagi sifat ko'rsatkichiga tayangan holda saralab tartiblandi;

2-bosqich: jamlangan va xronologik tartiblangan baza Microsoft Word dasturi orqali qo'l mehnati yordamida birma-bir qayta terildi va *.doc kengaytmali hujjatlar shaklida saqlandi. Bu turdagi hujjatlarda har ikkala tildan olingan ma'lumotlar maxsus ishlab chiqilgan jadvallarga joylashtirildi hamda ushbu jadvallarni umumlashtirgan alohida jildlar yaratilib saqlandi. Xronologik yig'ilgan manbalarga yillar kesimida +/- 5000 so'zli bazalar shakllantirish talabini qo'yish lozim topildi. Zero, miqdoriy me'yorning bo'lishi qidirilayotgan so'zning qo'llanishiga oid yillar kesimida faollik darajasini ko'rsatuvchi statistik ma'lumotning ishonchliligini isbotlaydi;

3-bosqich: yuqorida sanab o'tilgan bosqichlardan o'tgan, yig'ilgan manba Microsoft Excel dasturida ma'lumotlar o'rganilayotgan tillar kesimida alohida ikkita *.xls faylda vertikal ketma-ketlikda jamlandi va kompyuter xotirasi yoki internet sahifalariga yuklashga mos holatga keltirildi. Ushbu dastur yordamida ko'rib chiqilganda, umumiy jamlangan matnlar hajmi umumiy hisobda ikkala bazadan 316 ming 602 ta so'zli manba yig'ilgani aniqlandi. Hozirgi holatda, *Anaheim Bulletin* gazetasining 1991-yilning 2-avgustdagi sonidan 2020-yilning 8-dekabr sanasida chiqqan sonigacha bo'lgan muddatda yig'ilgan 30 yillik materiallar har bir yil hisobiga 5000 so'z atrofidagi va undan ortiq bo'lgan (bunga maqolani to'liq olingani sabab bo'ldi) hajmdagi matnlarni jamlagan umumiy 158 ming 819 ta so'z to'plandi.

Jamlangan materiallar ustida qayta ishlandi, saralandi, statistik birlamchi axborot olindi hamda ular mos ravishda 158 ming 819 va 157 ming 783 ta so'zni tashkil etayotganligi ikki qiyoslanayotgan tillardan yig'ilgan manbaning o'zaro katta hajmda farqlanmasligini ko'rsatmoqda. Bu degani korpus bazasidagi qiyosiy plandagi statistik tahlillar ishonarli va haqqoniy axborot sifatida qabul qilinishi mumkin.

Biz tomonimizdan yaratilgan *"Oila va jamiyat"* hamda *"Anaheim Bulletin"* gazetalarining 30 yillik bazasidan yig'ilgan gazeta matnlari asosida shakllantirilgan

ingliz va o‘zbek mediamatnlar diaxronik korpusi hozirda https://mediatextcorpus.com havolasida mavjud. Quyida zamonaviy elektron gadjetlarga osonlik bilan skanerlash orqali yuqorida aytib o‘tilgan havolani yuklab olish uchun qulay QR kod formasi ishlab chiqildi. "2-rasmga qarang".

2-rasm. Ingliz va o‘zbek mediamatnlar diaxronik korpusi havolasiga o‘tish

Umumiy uch fasldan iborat bo‘lgan dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi **"Mediamatnlar diaxronik korpusining amaliy va funksional ahamiyati"** deb nomlanib, o‘z ichiga diaxronik korpusda faol leksik qatlamning statistik asoslari, jumladan, korpusning yillar kesimida o‘zgaruvchan yuqori chastotali so‘zlarga oid tahliliy imkoniyatlari hamda so‘zlarning shakliy xilma-xilligi, o‘zak va morfologik birlik munosabatiga, ingliz va o‘zbek mediamatn diaxronik korpuslarida lingvomadaniy tushunchalar muqoyasasiga, tillararo o‘zlashgan uslub, neologizmlar va ijtimoiy tushunchalar tahliliga doir amaliy izlanishlar natijasini umumlashtiradi.

Yaratilgan korpus avtomatik taqdim etadigan jadvallardan ko‘rinib turibdiki, *the* aniq artikli ingliz tilidan olingan 30 yillik bazaning barcha yillarida birdek eng faol qo‘llanilgan. Umumiy hisobda, 9434 marta (BCh) qo‘llanilgan bo‘lib, jami so‘zlar miqdoriga nisbatan olinganda, taqriban 4,69 foiz (MCh)ni tashkil etganini ko‘rish mumkin. Artiklning boshqa turlari, xususan, *a* noaniqlikni bildiruvchi shakli jami 3612 marta, *an* esa 595 marta qo‘llangan. Ularning mos ravishda unli yoki undosh tovush bilan boshlanganligiga ko‘ra birlikdagi sanoqli ot oldida kelishini inobatga oladigan bo‘lsak, bu ingliz tilidagi shunday turdagi otlarning ko‘prog‘i undosh tovush bilan boshlanishi to‘g‘risida farazni keltirib chiqaradi. O‘zbek tili bazasidan avtomatik chiqarilgan statistikada esa yillar davomida eng faol qo‘llanilgan so‘zlar farqlanib turganini kuzatish mumkin. Ular qatorida *ham* yuklamasi 12 yil mobaynida, *va* bog‘lovchisi 12 yil davomida, *bilan* ko‘makchisi 5 yil va bir soni umumiy hisobda faqatgina bir yil oralig‘ida qo‘llangan eng faol so‘z sifatida qayd etiladi. Umumiy hisobda esa, 2054 marta qo‘llanilgan *va* bog‘lovchisi aynan eng yuqori chastotali ekanligi ma’lum bo‘ldi hamda uning o‘zbekcha baza miqdorining umumiy hajmiga nisbatlangani 1,01 foizni tashkil etishi aniqlandi. Demak har ikkala tildan olingan so‘zlar jami bazaviy miqdorga nisbatan katta ulushga egaligi ortidan chog‘ishtirilayotgan tillarda keng qo‘llanilishi xususida xulosaga kelish mumkin.

Keyingi e’tiborli holat shuki, *to, of, in, for, on, with* kabi bir qator predloglar qolgan shu turdagi so‘zlarga qaraganda, yuqoriroq chastotada qo‘llanilganini

jadvallar aks ettirib turibdi. Ular tarkibidan eng faol ishlatilgani esa *to* predlogi bo'lib, umumiy hisobda 4290 marotaba ishlatilgan bo'lib, 2,13 foizli nisbat bilan ingliz tili bazasida ikkinchi eng faol so'z hisoblanadi. Nazarimizda, leksik birlikning funksional vazifalarining ko'pligi uning faollik darajasini oshiradi. *Macmillan English dictionary*[30] ga ko'ra *to* so'zining ikki, ya'ni predloglik va ravishlik holati bo'lib, jami 21 ta turli ma'no va vazifalarda keladi. Jumladan, yo'nalishni ko'rsatuvchi predlog, fe'lning *infinitiv* shakli tarkibida, *going to, ought to, used to* kabi turli fe'l birikmalari tarkibida, soatlarni aytishda va boshqa o'rinlarda qo'llanilishi keltirilgan. Korpus yuqoridagi fikrlarni to'liq o'rinli ekanligini isbotlay oladigan baza ekanligi ma'lum bo'ldi.

Ingliz tiliga oid korpus tahlillariga e'tibor berganimizda, *said, was, had* kabi o'tgan zamon (past simple) formasidagi hamda *is, have, has, are* hozirgi zamon (present simple) fe'l shakllarining ham eng faol so'zlar qatorida qo'llanilganini ko'rish mumkin. Bu o'zbek tili holatida ham kuzatilib, *bo'lgan, deydi, deb, bo'lib, olib, bor, bo'ldi* kabi o'tgan zamon, ravishdosh, hozirgi zamon formalaridagi fe'l shakllari misolida ko'rinadi. Har ikkala tildan olingan matnlarning gazeta maqolalari ekanligini inobatga olganimizda, ularning barchasi aynan axborotni ikki asosiy zamon kategoriyasi shakllari orqali yetkazib berishini anglash o'rinli bo'ladi.

Ingliz va o'zbek tillari tarkibidan eng faollari qatorida olmosh so'z turkumiga mansub so'zlarni ko'rish mumkin. Misol uchun, *I, it, her, he, they, their, this, we* kabi kishilik va *demonstrative* / ko'rsatish olmoshlari inglizcha matnlar bazasida yuqori chastotali 20 ta eng faol so'zlar qatorida turishini ko'rish mumkin. O'zbek tili misolida olib qaralganda, bunday so'z turkumi tarkibidan *shu, bu, u, uning, men, ular, biz, siz, meni, ularning* kabilarni keltirish mumkin. Ular tarkibidan men / I olmoshining shakliy o'zgarishlarining tahlili natijasida quyidagilar aniqlandi: *I (885), me (127), my (183), mine (2), myself (10)*; *men (466), meni (162), menga (148), menda (5), mendan (32), o'zim (28), mening (117), meniki (1)*. Har ikkala holatda bosh kelishikda kelgan olmosh shakllari faolroq, -niki qo'shimchasi orqali o'zaro alternativ bo'lgan egalikni otsiz kelib, oldin eslatilgan otning ma'nosini ifodalovchi olmosh turlari nibatan pastroq chastotaga ega ekanligi kelib chiqdi.

Ingliz tili bazasidan *Anaheim, school, community, council, center, students, scored, three, abdominal, Bayless, high, city, orange, Ryans* kabi o'zbek tili bazasidan esa *sog'lom, muhabbat, paranji, onam, Abbos, bolalar, Xudoyberdi, Sobir, momo, respublikasi, oila, oilalar, O'zbekiston, nos, Ozoda* kabi umum iste'moldagi umumiy va atoqli ot so'z turkumiga tegishli so'zlarning ushbu ro'yxatda kelishi korpusga kiritilgan bazaning miqdori nisbatan kam ekanligi hamda bu bazadagi cheklangan sondagi maqolalar kontentining xususiyatlariga bog'liq bo'lib qolganligi bilan xarakterlanadi. Agarda ushbu baza miqdori hozirgi holatidan bir necha marotaba katta bo'lganida, bizningcha, bu so'zlar eng faol qo'llaniluvchi so'zlar qatoriga kira olmas edi. Bunga asos sifatida ularning uch dekadali bazada faqatgina bir yoki ikki yillik ma'lumotlar bazasida yuqori chastotali so'zlar qatorida ko'zga tashlanishini ham keltirish mumkin.

---

[30] Macmillan English Dictionary for Advanced Learners. edited by Rundell M. and others. – Macmillan Publishers Limeted, 2007. – P. 1573-1574.

Korpusda *Navro'z*[31] so'zi qidirilganda, jami 27 ta misol mavjudligini ko'rish mumkin bo'ldi. Ular tarkibidan kollokatsion birliklar ajratib olinganda, quyidagi faol birikuvchi jumlalar aniqlandi: *Navro'z arafasi; Navro'z ayyomi; Navro'z bayrami; Navro'zi olam; Navro'z kunlari; Navro'zi Ajam.*

Yuqoridagi misollarning barchasi tushunarli bo'lib, bugungi kunda ham til sohiblari tomonidan faol qo'llanilishi ma'lum. Biroq so'ngda berilgan va korpusda jami 3 o'rinda birikib qo'llanilgan *Navro'zi Ajam* jumlasi e'tiborni tortdi. Kengroq konteksda olib qaralganda, quyidagi gaplarda qo'llanilgani ma'lum bo'ldi: 1) S.Saidovning 1992-yilda chiqarilgan "Jimlik" nomli maqolasida *"To'g'ri, har bir san'atkordan "Navruzi Ajam"ni talab qilib bo'lmaydi, lekin... San'atda shaldir-shuldir ko'payib ketdi..."*[32] degan jumla uchraydi; 2) Sirojiddin Sayyidning 1992-yildagi "Sholikor" qishloq sho'rosi binosi nomli maqolasida ham ikki o'rinda qo'llanilgani ma'lum bo'ladi. *Birinchisi, "Mirzo Boburning "Bahor ayyomidurdagi yigitlikning ayvonidur" satri bilan boshlanguvchi nozik g'azalini "Navro'zi Ajami" satriga solib aytganida, umrning, tiriklikning go'zal salomi yanglig' bitilgan bu g'azalning qadimiy kuy pardalari ichra vido yanglig' zoru nigoron yangraganida qanday hikmat bor? "* mazmunida berilgan bo'lsa, *ikkinchi o'rinda, "Navro'zi Ajam" ulug' kuy, zor ko'ngilning mangu, tuganmas navhasidir u. Undagi yig'ini so'zga ko'chirish qiyin"* deyiladi. Ushbu kengroq konteksdan olingan misollar orqali korpus foydalanuvchisi *Navro'zi Ajam*ning qadimiy o'zbek xalq kuyi ekanligini anglay oladi.

Keyingi o'rinda ingliz madaniyatiga xos bo'lgan *Christmas* bayramining shu til sohiblari ongida ifodalanishiga oid misollar tahlilini berishni joiz topdik. Mediamatnlar diaxronik korpusida *Christmas*[33] so'zi qidiruvga berilganida jami 24 marta qo'llanilgani aniq bo'ldi. Ushbu so'z bilan birikib keluvchi kollokatsion birliklar ajratib olinganda, quyidagilar kelib chiqdi: *Christmas project; Christmas cards; Christmas services; Christmas Eve; Christmas tree; Christmas Party; Christmas time; Christmas Day.*

Yuqoridagilarni ko'rib chiqib, barchasi umumiy madaniyatga xos tushunchalarni anglatishini anglash qiyin emas. Ular orasidan *Christmas services* birikmasi qo'shimcha izoh talab etayotgandek, nazarimizda. Kengroq konteksda ko'rilganda, korpusda maqola 681-raqam bilan belgilangan bo'lib, 2011-yilda Sh. Nlapcich tomonidan yozilgan *"Toy drive planned tonight for babies"* sarlavha ostidagi matn tarkibidan olingani ma'lum bo'ldi. *"Any donations are appreciated. CANYON HILLS PRESBYTERIAN PLANNING CHRISTMAS SERVICES Canyon Hills Presbyterian Church will offer two Christmas Eve worship services, one at 5 p.m. and a candlelight service at 11 p.m."* – mazmunidagi matn qismi olib qaralganda, xristianlik e'tiqodiga sobit jamiyat vakillari uchun diniy bayram qismi hisoblanishi va bayramga tashrif buyuruvchi, xor tarkibida diniy qo'shiqlarni kuylovchi bolalarga sovg'a sifatida beriluvchi ehsonlarning qabul qilinishi aytiladi. Shuningdek, xizmat jarayoni ikkiga bo'linishi nazarda tutiladi. Ulardan birinchisi *Christmas Eve worship services,* ya'ni *ibodat xizmati* bo'lsa, ikkinchisi *a candlelight*

---

[31] O'sha manba https://mediatextcorpus.com/search?q=navr&language=2&match_type=0&year=

[32] O'sha manba https://mediatextcorpus.com/article/46

[33] O'sha manba https://mediatextcorpus.com/search?q=christmas&language=1&match_type=1&year=

service, ya'ni *sham yoqish xizmati* hisoblanadi. Bu orqali ommalashgan bayram an'analariga muvofiq tashkiliy masalalarni muvofiqlashtiruvchi xizmatlarni taklif etuvchi jamoat birlashmalari shakllanganligi aniqlandi. Bizningcha, bu turdagi xizmatlar kelajakda o'z faoliyatini tugatishi yoki rivojlanishi mumkin, biroq uning tildagi aksi gazeta matni arxivlarida saqlanishi korpusning mediamatnlarga asoslanganini izohlaydi.

XULOSA

1. O'tgan asr ikkinchi yarmining boshlanishida yuzaga kelgan tilshunoslik ilmining yangi tarmog'i bo'lgan korpus lingivsitikasi o'zining tadqiqot metodologiyasiga egaligi bilan xarakterlanib, zamonaviy ilm-fan, xususan, antropotsentrik tadqiqotlarga oid muammolarni yechishda keng qo'llanilmoqda. Uning obyekti hisoblangan lisoniy korpusga o'zida tilning asliyatdan olingan autentik materiallar asosida shakllanuvchi, reprezentativlik tamoyiliga javob beruvchi, til xususidagi ilmiy farazlarga amaliy yechim beruvchi, me'yoriy hajm talablariga bo'ysunuvchi elektron lisoniy baza sifatida yondashish o'rinli.

2. Ijtimoiy hodisa hisoblnadigan til doimiy rivojlanishdan to'xtamasligi hamda hozirgi zamon globallashuv davridagi xalqlarning keskin yaqinlashuvi oqibatida uning bugungi holati oldingiga va kelajakdagi holatidan tubdan farqlanishiga doir farazlarni keltirib chiqarmoqda. Bunday tahlikali vaziyatni to'gri baholagan holda, lingvistik tadqiqotlarning maqsad va vazifalari mavjud tillarning hali global internet hamda axborot xurujidan ta'sirlanmagan qatlam vakillaridan milliy sinxron korpuslarni yozib olib shakllantirishda dolzarblik kasb etadi. Zero, ushbu jarayon uzluksiz davom ettirib boriladigan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan yaratib borilgan lingvistik baza tarixiy qiymatga ega bo'lib, u keyingi bosqichda diaxronik korpus maqomiga erishadi.

3. Diaxronik korpuslar o'zi ifoda etayotgan lison tarkibidan aniq belgilab olingan tarixiy davrda yaratilgan asosan yozma matnlar tarkibidan yaratilishini ko'zda tutadi, chunki og'zaki nutqqa oid materiallarni jamlash, ular ustida ishlash nisbatan murakkablik kasb etadi. Ya'ni tarixiy voqelik radio va televideniye tarmog'ining rivojidan oldingi insoniyatning taraqqiyot bosqichlariga xos og'zaki manbani topish qiyin. Biroq tillararo interferensiyaga moyil til qatlami, dialekt yoki sheva, xalq og'zaki ijodi namunalarining turli shakllarini qayd etish orqali tilning rivojlanish tendensiyalarini ochib beruvchi ishonchli manbaga erishish mumkin. Bunda nutqning ushbu shaklini transkripsiya qoidalariga moslab, diaxronik korpus tarkibiga kiritishga ehtiyoj yuzaga keladi.

4. Har qanday diaxronik korpus yaratish amaliyotida, undan kutiladigan maqsad, ya'ni tillarning tadrijiy taraqqiyotini o'rganishga moslangan korpus interfeysi o'z ichiga, albatta, qidiruv tizimi, ro'yxatdan o'tish burchagi, manbadagi faol so'zlar ro'yxati va statistikasining ochiq ma'lumoti, manbalar bilan kengroq tanishish imkoniyati, yillar ketma-ketligiga alohida solnoma ma'lumotlariga bo'lgan havolalar va har bir kiritilgan matn xususidagi statistik hamda xronologik axborot olish imkoniyatini qamrab olishi shart.

5. Diaxronik korpuslar yaratish koʻp yillik, kamida bir dekadali oraliqdagi manbani yigʻishga tayangan holda uzoq muddatli ishlanishlar namunasi ekan, uning interfeysi va dizaynini foydalanuvchiga qulay shakllantirish korpus tuzuvchilarning pirovard maqsadi boʻlishi shart. Dizayndagi kichkina detalning ham ahamiyatdan chetda qolishi ortidan uzoq yillik mehnat mahsulini yuzaga chiqmay qolishiga sabab boʻlishi mumkin. Shuning uchun, diaxronik korpuslar yaratishda ularning konkordans natijalarini takomillashtirish, davriy farqlanuvchi, tizimli davomiylikka ega xronologik tartibda berilishi yoki kerakli davr hisobidan cheklanishiga doir funksiyalar kiritilishi lozim.

6. Korpus materiallariga qoʻyiladigan umumiy tamoyillar tarkibiga manbaning autentik material boʻlishi; oʻzaro teng hajmda toʻplanishi; hech qanday oʻzgartirish yoki toʻgʻrilash kabi tahririy jarayonlarga tortilmasligi; umumiy leksik miqdoriy hajmi bir milliondan kam boʻlmasligi; reprezentativlik tamoyiliga mos kelishi; zamon va makondagi mutanosibligi kabilarni kiritish oʻrinli ekanligi aniqlandi. Aynan diaxronik korpuslarga xos boʻlgan xususiy tamoyillar sifatida quyidagilar kiradi: 1) xronologik uzviylikda matnlarni yigʻish; 2) tarixiy voqelik ortidan yozuv grafikasida alfavit oʻzgarishlarini boshidan oʻtkazgan tillarning qadimiy yoki tarixiy bitiklarini transliteratsiya qilish; 3) teng hajmda matnlar kiritish borasidagi meʼyor talablariga nisbiy yondashish; 4) kamida 1 dekadali vaqt oraligʻini qamrab olish.

7. Diaxronik korpuslarning monitor korpuslar turiga kirishini inobatga olganda, uning tarkibiga kiritiladigan bazaviy miqdor va talab tilning boyishiga oid barcha voqelikni qayd etib borish barobarida zamon bilan hamnafas shakllanib borishga moyil boʻlgan matniy birliklar boʻlishiga oid qatʼiy talab joriy qilish zarur. Bu borada bugungi kunda ommalashgan internet tarmoqlarida kundalik yuklanayotgan materiallardan foydalanishni ularning oʻzgaruvchanlik, yaʼni matnni doimiy tahrir qilish mumkinligiga boʻlgan xususiyati sababli maʼlumotning kiritilgan vaqtiga xos ekanligini shubha ostiga qoldirgani tufayli amaliyotga joriy etib boʻlmaydi. Shunday ekan, qogʻozga chop etiladigan yoki online nashr etiladigan hamda barcha til meʼyorlariga rioya qilgan holda yaratiladigan va eng muhimi mediamuloqotning ajralmas qismi sifatida til sohiblarining ijtimoiy, milliy va madaniy hayot tarzini muttasil yoritib boruvchi gazeta matnlaridan diaxronik korpuslar uchun manba sifatida foydalanish oʻzini oqlaydi.

8. Takomillashtirilgan korpus lingvistikasi metodologiyasini olti bosqichga boʻlingan quyidagi tizimlilikka asoslangan metodlar tashkil etadi: yoʻnaltiruvchi metodlar, manba bilan ishlash yoki bazaviy metodlar, metadata qoʻshish metodlari, avtomatlashtirish metodlari, baholash metodlari, chastotali qidiruv-analiz metodlari. Ushbu har bir bosqich uzviylik bilan bir-birini toʻldiruvchi metodlar sistematik uzviylikka asoslangan holda ketma-ket amalga oshiriladi hamda barcha turdagi, xususan, diaxronik korpuslar yaratishda ham qoʻllash oʻrinli.

9. Mediamatnlar diaxronik korpusini shakllantirishda aniq belgilab olingan tamoyillarga rioya qilgan holda, tilning muayyan tarixiy bosqichiga oid matniy birliklarni yigʻish, saralash va avtomatlashtirish jarayoniga tortilishi qatʼiy tamoyillarga asoslanmasa, korpus oʻz oldiga qoʻygan maqsadga erisha olmaydi. Shuni inobatga olib, diaxronik korpus takibiga badiiy adabiyot namunalarini kiritish

maqsadga muvofiq emas. Zero, badiiy matnda muallif tomonidan asar ifodalayotgan zamon va makon ruhiyatini berish uchun maqsadli ravishda tarixiy, arxaik yoki neologizmlardan foydalanilishi oqibatida diaxronik davrlashtirishga nomutanosib natijalarni keltirib chiqarishi mumkin.

10. Mediamatnlar diaxronik korpusini shakllantirishda tanlab olingan o'rganilayotgan tillar doirasida "Anaheim Bulletin" va "Oila va jamiyat" gazetalari tanlab olindi. Gazeta materiallaridan aniq me'yorga asoslangan holda matnlar yig'ish bosqichi yakuniga ko'ra "Anaheim Bulletin" gazetasidan 1991-yilning 2-avgustdagi sonidan 2020-yilning 20-dekabr sonigacha hamda Oila va jamiyat" gazetasidan 1991-yilning 26-sentabrdagi 4-sonidan 2020-yilning aprel oyida chiqqan 16-sonigacha yig'ilgan 30 yillik materiallar har bir yil hisobiga 5000 so'z atrofidagi va undan ortiq bo'lgan (bunda maqola matni to'liq olingani sabab bo'ldi) hajmdagi matnlarni jamlagan, mos ravishda, umumiy 158 ming 819 ta va 157 ming 783 ta so'zni tashkil etuvchi baza shakllantirildi. Bunda, bazadagi yillar kesimidagi xronologik bazaviy-miqdoriy bir xillik yaratilgan korpusning me'yorlashtirilgan (balanced) turga kiritilishini asoslaydi.

11. Mediamatnlar diaxronik korpusi taqdim etadigan statistik axborotga tayangan holda aytish mumkinki, *the* aniq artikli ingliz tilidan olingan 30 yillik bazaning barcha yillarida birdek eng faol so'z sifatida qo'llanilgan hamda bu o'zbek tili bazasidan avtomatik chiqarilgan statistikada esa yillar davomida eng faol qo'llanilgan so'zlar farqlanib turganini kuzatish mumkin. Ular qatorida *ham* so'z-turi 12 yil mobaynida, *va* so'z-turi 12 yil davomida, *bilan* so'z-turi 5 yil va *bir* so'z-turi umumiy hisobda faqatgina bir yil oralig'ida eng faol so'z sifatida qayd etiladi. Tadqiq etilgan tillar bazasida xronologik kuzatish natijalariga ko'ra eng faol o'nlikni, asosan, yordamchi, ko'makchi, artikl, olmosh va vazifadosh so'zlar tashkil etganligini kuzatish mumkin. Ayni natijalar mavjud til korpuslari tahlillariga qiyoslanganda ham yaqin o'xshashlikni aks ettiradi. Bu esa mediamatnlar diaxronik korpusi va shu turdagi yaratilishi mumkin bo'lgan diaxronik korpuslarning tilning lug'at qatlamining faollik darajasiga ko'ra tartiblash imkoniyatini yaratishiga oid ilmiy farazni asoslaydi.

12. Ingliz va o'zbek tillari mediamatnlar diaxronik korpusi o'zi ifoda etuvchi lisoniy bazaga tayanib, ayni tillarning madaniyatini chuqurroq anglashga qaratilgan tahlillar, jumladan, lingvokulturologik birliklarning gazeta matnlarida berilishiga oid nazariy xulosalarga kelishda xizmat qiluvchi statistik hamda so'z qo'llashga doir tezkor, aniq, ishonchli misollarni taqdim etadi. Bunda qidiruvga beriladigan tushuncha yoki konseptning mohiyatini anglash va qiyoslanayotgan tillar doirasida muqoyasa qilish bilan bir qatorda ularning konseptual freymini yaratish imkoniyati yuzaga keladi.

13. Ingliz va o'zbek tillari mediamatnlar diaxronik korpusi mohiyatan o'zi qamrab olgan 1991–2020-yillar oralig'idagi davrga xos tanlangan gazeta matnlari tarkibidan yillar ketma-ketligida so'zlarning faollik darajasidan kamayib borishiga qadar avtomatik hisoblab beradi. Ayni vaziyat tadqiqotchiga tilning lug'at tarkibiga kirib kelgan yangi, tarixiy yoki arxaik leksik birliklarni empirik tahlil tamoyillariga mos ravishda aniqlashga imkon beradi. Ushbu korpus bazasining hozirgi hajmi qiyoslanayotgan tillarga oid yakuniy xulosalarni chiqarishga imkon bermasa-da,

ishlab chiqilgan loyiha hajmini kengaytirib borish oqibatida bunga asosli ravishda erishish mumkin, deb hisoblaymiz.

14. Mediamatnlar diaxronik korpusi so'zlarning o'zaro birikuvchanligiga oid aniq misollar, statistik axborot va kollokatsion birliklarning kontekstda qo'llanilishini anglash uchun matn bo'laklarini taqdim etadi. Ular asosida turli tizimli tillarda o'rganiladigan tushunchaning semantik maydonini hosil qilishda nafaqat so'zning ma'noviy guruhlarini hosil qilish mumkin, qolaversa, so'z birikmalari va kollokatsion birliklarning xronologik birikuvchanligiga oid istorizmlarni tadrijiy aniqlash imkoni yuzaga keladi. Bunda konkordans qidiruviga kiritilgan leksemaga birikuvchanlikka moyil lisoniy birliklar, jumladan morfemalarning ham o'zak+qo'shimcha munosabatiga oid faollik darajasini aniq xronologik kuzatish mumkinligi so'zning shakl va mazmun o'zgarishiga moyilligini tadrijiy o'rganish imkoniyatini beradi.

15. Internet tarmog'ida yuklanayotgan elektron til resurslari, jumladan, lisoniy korpuslarning yaratilishi tillarning yo'qolib ketishiga oid farazlarni inkor etuvchi omillar sirasiga kirishi borasidagi e'tirof o'rinli. Zero, tilshunoslikka oid izlanishlar bazasida yaratilayotgan ilmiy tadqiqotlar mavjud tilning unsurlariga daxl qilishga emas, balki uning xususiyatlarni tahlil qilishga qaratilgan zamon va makonni aks ettiruvchi lingvistik bazalarni jamlab borishga yo'naltirilishi zarur. Dissertatsiyaning amaliy natijasi bo'lmish ingliz va o'zbek tillarining mediamatnlar diaxronik korpusining yaratilishi tillarning ayni paytdagi holatiga baho berish emas, ko'zda tutilgan davr mobaynidagi uzluksiz rivojining kvantitativ aksini ko'rsatishi bilan xarakterlidir.

SCIENTIFIC COUNCIL ON AWARDING SCIENTIFIC DEGREES DSc.03/30.12.2022.Fil.05.02 AT FERGANA STATE UNIVERSITY

BUKHARA STATE UNIVERSITY

ATABOEV NOZIMJON BOBOJON UGLI

PRINCIPLES OF EMPIRICAL ANALYSIS OF LANGUAGE DEVELOPMENT IN THE DIACHRONIC CORPUS OF MEDIA TEXTS (in the example of Newspaper materials)

10.00.11 – Theory of language. Applied and computational linguistics

DISSERTATION ABSTRACT for the doctor of philological sciences (DSc)

Fergana – 2024

The theme of the dissertation for doctor of philological sciences (DSc) was registered at the Supreme Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under the number B2022.3.DSc/Fil465.

The doctoral dissertation was carried out at the Bukhara State University.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (abstract)) on the website of Fergana state university www.fardu.uz and on the website ZiyoNet information and educational portal www.ziyonet.uz.

|	
Scientific supervisor:	**Teshabaeva Dilfuza Muminovna,** Doctor of Philological Sciences, Professor
Official opponents:	**Sultonova Shokhista Mukhammadjanovna** Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
	Abdurakhmonova Nilufar Zaynobiddin kizi Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
	Dr. Mario Bisiada Doctor of Philological Sciences (Spain)
Leading organization:	**Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi**

Defense of the Dissertation will take place on "26th" of August 2024, at 8:00 a.m. at a meeting of Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 under Fergana State University (Address: 105, Marginoni Street, Fergana, 100151. Tel: (99873) 244-57-82; fax: (99873) 244-44-01; e-mail: info@fdu.uz.

The doctoral dissertation can be reviewed at the Information Recourse Center at Fergana State University (registered under the number 366). The address: 150100, 19, Murabbiylar street, Fergana city Tel: (+99873) 244-44-02, fax: (+99873) 244-44-93, e-mail: fardu_info@umail.uz

The abstract of the dissertation sent out on "13th" of August 2024
Mailing report №22 on "13th" of August 2024

S.M. Muminov
Chairperson of the Scientific Council, Doctor of Philological Sciences, Professor

M.T. Zokirov
Scientific Secretary of the Scientific Council, Candidate of Philological Sciences, Professor

A. Mamajonov
Chairman of the Scientific seminar under the Scientific Council, Doctor of Philological Sciences, Professor

INTRODUCTION (abstract of DSc dissertation)

Topicality and necessity of the thesis. In world linguistics, due to the acceleration of globalization trends, intercultural and interlinguistic rapprochement is occurring and the interference between closely related languages is strengthened, the question of studying the effects on the levels of the pure lexical layer is emerging. Accordingly, the fact that language is being studied as an integral part of society without separating it from the owner of the language, that is, from the perspective of the anthropocentric paradigm, presents to linguists the requirement to study the current state of the language in harmony with its historical evolution, and to develop scientific hypotheses based on analyzes of its future. In this regard, the implementation of diachronic corpora, which are chronologically ordered and formed on the basis of authentic materials/texts taken from the original based on precise statistical standards, is of great importance.

Corpus linguistics, which is widely spread in the framework of linguistic research in the world and is progressing using computer technologies in accordance with the requirements of modern science, offers new convenient ways to find solutions to all problems of linguistics based on its methodology. The fact that the system of methods is formed by the combination of disciplines such as computer linguistics, text linguistics, mathematical linguistics and applied linguistics guarantees that the research conducted in this regard is essentially relevant.

The fact that comprehensive reforms to further strengthen the status of the state language in our country are based on political will imposes on linguists the task of creating an electronic database, i.e. a corpus, of sources from ancient manuscripts written in our native language to textual units covering today's linguistic reality, and researching them based on a new approach. As the Prezident of our Republic, Sh.M. Mirziyoyev noted, "It is known that in the study and development of any language, first of all, its theoretical and methodological foundations play an important role. Among these, it is necessary to note that serious work is being carried out on creating the electronic national corpus of the Uzbek language and Uzbek applications of software products, popularizing the Uzbek language on the Internet, ensuring that it occupies a worthy place, developing and implementing the programs for teaching the state language and text editing."[34] Therefore, in the course of the first development of the diachronic corpus of the Uzbek language, on the example of the newspaper materials selected as the research object, important tasks such as recording the changes in the linguistic layer by empirically analyzing the development of the lexical layer of our native language were determined.

The present scientific study serves to a certain degree to achieve the objectives set out in the following legal documents: Decree PF-6084 of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures to further develop the Uzbek language in our country and improve the language policy" as of October 20, 2020, Decree PF-5850 "On measures to fundamentally increase the prestige and position of the Uzbek language as a state language" as of October 21, 2019, Resolution PQ-5117 "On measures to bring the

---

[34] Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oʻzbek tili bayrami munosabati bilan Oʻzbekiston xalqiga tabrigi. https://president.uz/oz/lists/view/6784 [murojaat sanasi 29.02.2024]

activities of popularization of foreign language learning to a qualitatively new level in the Republic of Uzbekistan" as of May 19, 2021, Resolution PQ-19 "On Additional measures to increase the flow of tourists and further increase the prestige of our country by widely promoting the study of the history and culture of Uzbekistan, the Uzbek language and literature in foreign countries" as of January 12, 2024, Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 139 "On measures to further increase the effectiveness of fundamental and applied research on the Uzbek language and literature" as of March 11, 2020, Resolution No. 117 "On measures to further improve the activities of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi" as of March 3, 2020.

Relevance of the research to the priority areas of science and developing technology of the Republic. The research was carried out under the priority directions of science and developing technology of the Republic, "The Formation of the Innovative System of Ideas in Social, Legal, Economic, Cultural, Spiritual and Educational Development of the Democratic State and their Ways of Implementation in the Information Society."

A review of foreign research on the topic of dissertation[35].

The practice of creating language corpora and the use of today's achievements of the scientific network of corpus linguistics have achieved important scientific results in theoretical and practical researches conducted in leading scientific centers and higher education institutions of the world including the following: Lancaster University, Lancaster (United Kingdom), The University of Birmingham (United Kingdom), Macquarie University, Sydney (Australia), University of Portsmouth (United Kingdom)), Lancaster summer schools (United Kingdom), University of Sydney, Sydney (Australia), Bukhara State University (Uzbekistan), Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi (Uzbekistan).

As a result of research on corpus linguistics and the use of linguistic corpora in the analysis of the history of language, its development trends and problems of intercultural interference in world linguistics, the following scientific results were obtained, among others: the problems including the application of corpus linguistic methods to the structure of English and the analysis of Western languages (Lancaster University, Lancaster (United Kingdom), early lexicographic research based on corpus linguistics methodology and fields such as stylistics, discourse analysis, psycholinguistics, cognitive linguistics and statistics (The University of Birmingham (United Kingdom) to determine the coherence of corpus analysis methods, various research areas, including child language development, second language learning, translation, sociolinguistics, global variants of English and (Macquarie University, Sydney (Australia), using corpora consisting of billions of words to justify the reasons for the different use of the same language in different regions, genres and situations (University of Portsmouth, (United Kingdom)), teaching English grammar and vocabulary through corpus linguistics (Lancaster summer schools (United Kingdom)

---

[35] Sharh universitetlarning veb-saytlaridagi ma'lumotlar asosida taqdim etildi: https://www.lancaster.ac.uk/, https://www.birmingham.ac.uk/, https://www.mq.edu.au/, https://www.port.ac.uk/, https://wp.lancs.ac.uk/, https://www.sydney.edu.au/, https://buxdu.uz/

using corpus analysis in the process of learning and teaching English (University of Sydney (Australia), English and monitoring the development of selected languages by creating a diachronic corpus of Uzbek media texts (Bukhara State University (Uzbekistan), creation of national, educational and electronic corpora of the Uzbek language (Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi (Uzbekistan) have been solved.

In world linguistics, the study of language development based on corpus analysis and the integrated systematic study of the practice of creating diachronic corpora are conducted in the following priority directions: principles of corpus analysis in the study of biological language development, in particular, according to age and gender categories, cultural and regional language, creation of language corpora including regional dialects and language variants in development, etc.

